

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK  
INSTITUTI**

**X.Z.Alimova**

# **ERON TILSHUNOSLIGI TARIXI**

Mazkur o‘quv-uslubiy qo‘llanmada Eron tilshunosligining Erondagi asosiy yo‘nalishlari, jumladan, lug‘atshunoslik, grammatik tavsif va fors-dariy tillarining umumlingvistik nazariy muammolari Eron va Afg‘oniston lingvistlarining asarlarida qanday yoritilganligi tanishtirishiriladi.

O‘quv-uslubiy qo‘llanma ToshDSHda 5A120102 – lingvistika (fors-dariy tillari) mutaxassisligi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalarga mo‘ljallangan. Qo‘llanmadan fors-dariy tillari bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar va o‘qituvchilar ham foydalanishlari mumkin.

**TOSHKENT – 2012**

Mazkur o‘quv-uslubiy qo‘llanmada Eron tilshunosligining Erondagi asosiy yo‘nalishlari, jumladan, lug‘atshunoslik, grammatik tavsif va fors-dariy tillarining umumlingvistik nazariy muammolari Eron va Afg‘oniston lingvistlarining asarlarida qanday yoritilganligi tanishtirishiriladi.

O‘quv-uslubiy qo‘llanma ToshDSHda 5A120102 – lingvistika (fors-dariy tillari) mutaxassisligi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalarga mo‘ljallangan. Qo‘llanmadan fors-dariy tillari bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar va o‘qituvchilar ham foydalanishlari mumkin.

**Taqrizchilar:**

*A. Vohidov, filologiya fanlari nomzodi, Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Eron-afg‘on filologiyasi kafedrasi dotsenti*

*M. Imomnazarov, filologiya fanlari doktori, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Milliy g‘oya va ma‘naviyat asoslari kafedrasi professori*

Ushbu o‘quv-uslubiy qo‘llanma Toshkent davlat sharqshunoslik institutining O‘quv-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan (5-sonli bayonnoma, 19.04.2012).

© Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2012

© X. Alimova, 2012

## KIRISH

“Eron tilshunosligi tarixi” asosiy ixtisoslik fanlari qatorida turuvchi fan hisoblanadi. Mazkur kurs talabalarni Eron tilshunosligining Erondagi asosiy yo‘nalishlari, jumladan, lug‘atshunoslik, grammatik tavsif va fors-dariy tillarining umumlingvistik nazariy muammolari Eron va Afg‘oniston lingvistlarining asarlarida qanday yoritilganligini tanishtirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi .

Kursning vazifasi – talabalar o‘quv mashg‘ulotlarida fors tilshunosligi asarlarining ayrim qismlari bilan tanishadilar.

Talabalar mazkur kursni o‘rgangandan so‘ng ko‘rsatilgan bo‘limlar bo‘yicha aniq bilimga ega bo‘lishlari va fors tili haqidagi kitoblarni o‘qish, tushunish va tahlil qila olishlari kerak. Maxsus kurs quyidagi fanlar bilan bog‘liqdir: “Tilshunoslikka kirish”, “Eron filologiyasiga kirish”, “Umumiy tilshunoslik” va boshqalar .

Maxsus kurs 20 soat ma’ruza va 20 soat amaliy darslarga mo‘ljallangan.

## 1-MA'RUZA

### FORS LUG'ATSHUNOSLIGI (LEKSIKOGRAFIYASI) (farhangnevisi-ye forsi)

**Darsning maqsadi:** Kursning maqsad va vazifalarini tushuntirish, lug'atshunoslik haqida umumiy ma'lumot berish, fors lug'atshunosligi tarixi bilan tanishtirish va b.

**Tayanch so'z va iboralar:**

- ✓ Leksikografiya
- ✓ Izohli lug'at
- ✓ Lingvistik lug'at
- ✓ Ensiklopedik lug'at
- ✓ Ikki tilli lug'at
- ✓ Alifbo tartibi
- ✓ Qo'lyozma
- ✓ Eskirgan so'z
- ✓ Sheva
- ✓ Leksikografik manba

**Ma'ruza rejasi:**

- Leksikografiya tilshunoslikning bo'limi sifatida va fors leksikografiyasi.
- Lug'atlar va ularning turlari.
- Fors tilida lug'atlarning yaratilishi (izohli lug'atlar).

### **LEKSIKOGRAFIYA TILSHUNOSLIKNING BO'LIMI SIFATIDA**

Leksikografiya bu tilshunoslikning bo'limlaridan biri bo'lib, lug'at tuzish nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanadigan sohadir.

#### ***Fors leksikografiyasining davrlashtirilishi***

- XIV asrgacha bo'lgan Eron va O'rta Osiyodagi lug'atshunoslik.
- XIV asrdan XIX asrgacha bo'lgan Markaziy Hindistondagi lug'atshunoslik.

- XIX asrdan hozirgi davrgacha bo‘lgan lug‘atshunoslik.

### ***HINDISTONDAGI FORS LUG‘ATSHUNOSLIGI***

(V.A.Kapranov (1987) va S.I.Bayevskiy (1981))

- XIV - XV asrlardagi lug‘atshunoslik.
- XVI - XVII asrlardagi lug‘atshunoslik.
- XVII asr va undan keyingi davr lug‘atshunosligi.

### ***LUG‘ATLARNING TURLARI***

- Tarixiy lug‘atlar.
- Alohida shaxslar (shoir,yozuvchi yoki davlat arboblari)ga bag‘ishlangan lug‘atlar.
  - Frazelogik lug‘atlar.
  - Sinonim va antonim so‘zlar lug‘ati.
  - Etimologik lug‘atlar.
  - O‘zlashma so‘zlar lug‘ati.
  - Chastotali lug‘atlar.
  - Ma’qol va iboralar lug‘ati.
  - Chappa/ters lug‘atlar.
  - Grammatik va orfografik lug‘atlar.
  - Lingvistik va ensiklopedik lug‘atlar va boshqalar.

### ***LINGVISTIK VA ENSIKLOPEDIK LUG‘ATLAR***

● Lingvistik lug‘atlar - so‘zning tarjimasi, ma’nolari, kelib chiqishi, qo‘llanilishi va leksik, grammatik, orfoepik xususiyatlari haqida ma’lumot beradi.

● Ensiklopedik lug‘atlar - voqea-hodisa, tushuncha va ularning belgilari, ma’nosi, shuningdek, madaniyat, siyosat, ilm-fan sohalariga doir ma’lumotlarni o‘z ichiga qamrab oladi.

## ***IZOHLI LUG‘ATLAR***

Izohli lug‘atlarda ma’lum bir so‘z ma’nosi yoritib beriladi va ular bir tilli, ikki tilli va ko‘p tilli bo‘lishi mumkin.

### **FORS LUG‘ATSHUNOSLIGI**

● Fors lug‘atshunosligining tadqiqotchilari Yu.A. Rubinchik, K.G. Zaleman, I.M. Oranskiy, V.A. Kapranov, S.I. Bayevskiy va boshqalar.

● Forsi-ye dariy tilidagi lug‘atlar bilan tanishib chiqamiz:

### **Forsi-ye dariy tili izohli lug‘atlari**

● Birinchi izohli lug‘atlardan biri “فرهنگ ابو حفص سغدي” yoki “رساله ابو حفص سغدي” lug‘ati bo‘lib, uning muallifi Abu Hafs So‘g‘diy musiqachi va shoir sifatida mashhur bo‘lgan. U o‘z lug‘atini IX asrning oxiri X asr boshlarida tuzgan. Lekin bu lug‘at bizgacha yetib kelmagan.

● **“لغت فرس”**

● Muallifi Asadi Tusiyy (ابومنصور علي بن احمد اسدي الطوسي) bo‘lib, ushbu lug‘at fors tilidagi izohli lug‘atlarning eng qadimiysidir. U XI asr ikkinchi yarmida Ozarbayjonda tuzilgan. Bu lug‘at nashrlari nemis olimi P.Horn (1897), eronlik olimlar D.Eqbol (1940) va D.Siyoqiy (1957) tomonidan amalga oshirilgan.

● Asadi Tusiyyning lug‘ati V.A. Kapranov (Dushanbe, 1964) tomonidan chuqur o‘rganilgan.

● Asadi Tusiyy birinchi marta so‘zlarni **alifbo tartibida** joylashtirgan lug‘atshunos hisoblanadi va uning usuli lug‘atshunoslikda hali ham qo‘llanilmoqda. Unga 1700 ta Ozarbayjon, Eron, O‘rta Osiyo va Sharqiy Xurosonda yashovchilar uchun tushunarli bo‘lgan so‘zlar kiritilgan.

● **“معيان جمالي”**

- Muallifi Shams Faxri Isfahoniy (شمس فخري اصفهاني) bo‘lib, bu lug‘at XIV asrning 43-yilida Luristonda tuzilgan. Unga taxminan 1600 ta so‘z kiritilgan. K.G.Zalemanning yozishicha, bu lugat Asadi Tusiyning “لغت فرس” i bilan deyarli bir xil va o‘sha tartibda tuzilgan.

- “صاح الفرس”

- Muallifi shoir Hindushoh Naxchivoniy (شمس الدين محمد بن) (فخرالدين هندو شاه نخبواني) bo‘lib, u bu kitobini 1327-1328-yillarda Tabrizda tuzgan. Unda lug‘at tuzishdagi orfoepik va orfografik qonun-qoidalar to‘g‘risida bir qancha ma’lumotlar berib o‘tilgan.

## XIV – XIX ASRLARDA YARATILGAN LUG‘ATLAR



Lug‘atshunoslik faqatgina Hindistonda emas, balki Eron, Afg‘oniston, Ozarbayjon kabi mamlakatlarda ham o‘z kurtaklarini ochgan edi. Biz hozir o‘sha davrlarning lug‘atlarini keltirib o‘tamiz.

1. XVI asr boshlarida Ziyovuddin Muhammad tomonidan “تحفة السعادة” (“Baxt-saodat sovg‘asi”) Hindistonda yaratilgan bo‘lib, ushbu lug‘at 14000 so‘zni o‘z ichiga qamrab oladi. Shuningdek, arab va turk tillaridan o‘zlashgan so‘zlar ham izohlangan. Ushbu lug‘at 29 bobdan iborat bo‘lib, har bir bob fasllarga bo‘lingan.

2. XVI asrda Hofiz Ubehi tomonidan “تحفة الاحباب” (“Sevikli (inson)larga sovg‘a”) lug‘ati tuzilgan bo‘lib, ushbu lug‘at Asadi Tusiyning “لغت فرس” lug‘atining qayta ishlangani edi. Shuningdek, ushbu lug‘at 2400 ta so‘zni jamlagan bo‘lib, eskirgan va shevaga oid so‘zlar ham bor.

3. XVII asr boshlarida Sherozlik Husayn Inju tomonidan “فرهنگ جهانگيري” (“Jahongir lug‘ati”) Jahongirshoh Boburga atab yozilgan lug‘atdir. Bu lug‘at o‘z ichiga 9000 ta so‘zni qamrab olgan. Muallif ushbu lug‘at ustida 40 ga yaqin leksikografik manbalardan foydalangan holda, 30 yil davomida ishlagan. Lug‘atning boshqa lug‘atlardan farqli tomoni shundaki, uning muqaddimasida fonetika, grammatika, leksika, orfoepiya va orfografiya kabi grammatik qonun-qoidalarga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Bu lug‘atni tadqiq etgan olim X.Раупов (Dushanbe, 1966)ning ta’kidlashicha, “فرهنگ جهانگيري” ning muallifini fors normativ grammatikasining asoschilaridan biri deb hisoblash mumkin.

4. XVII asr boshlarida Eronning Koshon shahrida tug‘ilgan Muhammad Qosim Sururi (محمد قاسم بن حاج محمد کاشاني متخلص به سروري) tomonidan “مجمع الفرس” lug‘ati tuzilgan. Soruri asosan Isfahonda yashagan, u Hindistonga sayohatga borgan. Lug‘at XVI asr fors tili lug‘at tarkibini aks ettiradi. Muallif o‘sha davrdagi 19 ta eng mashhur leksikografik manbadan, hatto 70 dan ortiq shoirning ijodidan ham foydalangan. Lug‘at o‘zbek olimi Ya.Sotiboldiyev tomonidan o‘rganilgan.

5. XVII asrga kelib Hindistonda lug‘atshinoslik yanada rivojlandi. Ana shu davrdagi eng mashhur lug‘atlardan biri “برهان قاطع” (“Hal qiluvchi dalil”, 1652) 20 ming so‘zni o‘z ichiga qamrab olgan. Ushbu lug‘at Hindistonda tabrizlik Muhammad Husayn ibn Xalaf at-Tabriziy tomonidan tuzilgan. Muallif nafaqat fonetika, leksika va grammatika, balki sotsiolingvistikaga oid muammolarga ham ahamiyat bergan. Lug‘at alifbo tartibida tuzilgan.

6. “فرهنگ رشیدی”. XVII asr o‘rtalarida Hindistonda tuzilgan bo‘lib, muallifi Abdurashid al-Madini at-Tatavi.

7. “غیاث اللغات” XIX asr boshlarida Hindistonda Muhammad G‘iyosiddin tomonidan tuzilgan. Ushbu lug‘atda idiomaga oid iboralarni ko‘p uchratish mumkin. Lug‘at 1958-yilda Tehronda D.Siyaqiy tomonidan nashr etilgan.

8. XIX asrning oxirlarida Muhammad Podshoh tomonidan “فرهنگ اندراج” lug‘ati tuzilgan. Lug‘at 1956-yilda Tehronda D.Siyaqiy tomonidan nashr etilgan.



### **Nazorat uchun savollar:**

1. *Leksikografiya qanday masalalar bilan shug'ullanadi?*
2. *Lug'atning qanday turlarini bilasiz?*
3. *Izohli lug'at va uning turlarini sanab bering.*
4. *Orfoepik lug'at qanday lug'at sanaladi?*
5. *Chastotali (so'zlarning ishlatilish darajasiga ko'ra) lug'atning ahamiyatini tushuntiring.*
6. *Bizgacha etib kelgan birinchi forsiy lug'at qaysi davrga taalluqli?*
7. *«Farhang-e Abu Hafs Sug'di» lug'ati haqida so'zlab bering.*
8. *Asadi-ye Tusiy «Lug'at-e furs» (XI asr) lug'atini o'rgangan mashhur lug'atshunos kim?*
9. *Asadi-ye Tusiyning «Lug'at-e furs»i necha marta nashr qilingan va noshirlari kim?*
10. *«Me'yar - e Jamili» lug'ati va uning muallifi haqida so'zlab bering.*
11. *Dabir Siyoqiy kim va uning qaysi asarlarini bilasiz?*
12. *Fors lug'atchiligining II bosqichi qaysi davrdan boshlanadi va rivojlanadi?*
13. *Hindistonda fors tilining yoyilish sabablarini izohlang.*
14. *XVI asrda yaratilgan izohli lug'atlarni aytib bering.*
15. *XVII asrga oid izohli lug'atlarni sanang.*
16. *Husayn Indjuning «Farhang-e Jahongiri» lug'ati mohiyatini tushuntiring.*
17. *«Burhon-e qote» izohli lug'atining muallifi kim?*
18. *«Burhon-e qote» lug'atining tuzilishini izohlang.*

### **Mustaqil ta'lim uchun savollar:**

1. *XIX asrga oid lug'atlarnisanang.*
2. *Dabir Siyoqiy va uning fors lug'atshunosligida tutgan o'rni haqida so'zlab bering.*
3. *«Farhang-e Jahongiri» lug'atini kim tadqiq etgan?*
4. *V.A.Kapranov kim va fors lug'atchiligining qaysi bosqichini tadqiq etgan?*
5. *O'zbek olimi Y. Sotiboldiev qaysi lug'at ustida ishlagan?*

## **Adabiyotlar**

1. Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. – Изд-во Московского университета, 1975. – С.191-193.

2. Рубинчик Ю.А. Лексикография персидского языка. – М., 1991. – С.5-14.

3. Siyoqi D. Farhangho-ye forsi be forsi va forsi be zabonho-yi digar va farhangho-ye mo'uzui va guyeshho-ye mahalli va farhangguneho» - Tehron, 1997.

4. Капранов В.А. «Луғати Фурс» Асади Туси и его место в истории таджикской (фарси) лексикографии. – Душанбе, 1964.

## 2-MA'RUZA

### HOZIRGI ZAMON FORS TILI LUG'ATLARI

**Darsning maqsadi:** Hozirgi zamon fors tili lug'atlari bilan tanishtirish, lug'atlar haqida yaxlit tasavvur shakllantirish, ularni tahlil qila olish malakasini hosil qilish.

**Tayanch so'z va iboralar:**

- ✓ Etimologik lug'at
- ✓ So'zlashuv lug'ati
- ✓ Terminologik lug'at
- ✓ Tarixiy lug'at
- ✓ M.Muin – lug'atdon olim
- ✓ Frazologik lug'at
- ✓ Transkripsiya
- ✓ Transliteratsiya

**Ma'ruza rejasi:**

1. S. Nafisiy va A.Dehxudo izohli lug'atlari.
2. M. Muin va H.Amid izohli lug'atlari.
3. Sozlashuv lug'atlari.
4. Atamalar lug'atlari.
5. Fors tili tarixiy lug'atlari.
6. D.Siyoqiyning lug'atshunoslikka oid ishlari haqida.
7. Oxirgi davr lug'atlari.

■ XIX asr 2-yarmi va XX asr 1-yarmida Eron va boshqa mamlakatlarda fors tili lug'atini tuzish ishlari keng olib borildi. O'rta asr lug'atshunosligi an'analarini davom ettiruvchi izohli lug'atlar paydo bo'la boshladi. Shu bilan birga tarjima (ikki tilli, ba'zan uch tilli) lug'atlari, birinchi bor atamalar va etimologik hamda ba'zi shoir va yozuvchilarning asarlari lug'atlari paydo bo'la boshladi.

■ Zamonaviy Eron lug'atlari ichida S.Nafisiy, A. Dehxudo, N. Muin va H. Amidlar tuzgan lug'atlarining ahamiyati katta. Bu lug'atlar tarkibida nafaqat klassik adabiyotga oid so'zlarning, balki hozirgi fors tili va chet tiliga oid so'zlarning izohi berilgan.

## **S. Nafisiy va A. Dehxudo izohli lugʻatlari**

■ **“Farhang-e Nafisi”** – 5 jildli izohli-ensiklopedik lugʻatlardan biri boʻlib, muallifi Ali Akbar Nafisiydir. Muallifning ogʻli mashhur olim S.Nafisiy tomonidan yozilgan kirish soʻzida aytilishicha, lugʻatda 158431 soʻzning izohi berilgan boʻlib, ularning 99522 tasi arabcha soʻzlardir.

■ **“Lugʻatname-ye Dehxudo”** – mashhur eron olimi va yozuvchisi Ali Akbar Dehxudo qalamiga mansub izohli-ensiklopedik lugʻat boʻlib, uning nashri 1946-yil muallif oʻlimidan soʻng boshlangan.

## **M. Muin va H. Amid izohli lugʻatlari**

■ **“Farhang-e forsi”** – 6 jildli izohli-ensiklopedik lugʻat boʻlib, M.Muin tomonidan tuzilgan. Lugʻat 3 qismdan iborat: lugʻat, tarkibot-e xoreji va aʼlom. Aʼlom qismida mashhur shaxslar, tarixiy voqealar, siyosiy va diniy oqimlar, geografik nomlar keltirilgan.

■ **“Farhang-e Amid”** – 1958-yil Hasan Amid tomonidan tuzilgan 2 jildli izohli lugʻat. Bir necha marta (oxirgi 8-nashri 1997-yilda) chop qilingan.

## **“Tojik tili lugʻati”**

■ **“Tojik tili lugʻati”** (X- XX asr boshlari) 2 jildli lugʻat boʻlib, 1969-yilda M.Sh.Shukurov, V.A.Kapranov, R.Hoshim, N.A.Masumi tahriri ostida tojik lugʻatshunoslari jamoasi tomonidan tuzilgan. 45000 soʻzdan iborat va fors-tojik klassik adabiyotidan misollar, tazkira, tarixiy yodnomalarni oʻz ichiga oladi. Bu lugʻat misollar bilan izohlangan frazeologik birliklarning koʻpligi bilan oldingi lugʻatlardan ajralib turadi.

■ 1977-yil Tehronda “Farhang-e forsi-ye emruz” izohli lugʻat chop qilindi. Mualliflar – G.X.Sadri Afshor, Nasrin Hokmi va Nastaran Hokmi. 1240 betdan iborat. Mualliflarning fikricha, oldingi lugʻatlardan farqli oʻlaroq hozirgi fors tilida eng koʻp qoʻllanadigan soʻzlarni oʻz ichiga olgan.

■ 1998-yil o'rtalariga kelib broshyura ko'rinishida "Vojeho-ye mo'savvab-e Farhangeston-e zabon va adab-e forsi" chop qilina bosjlandi. Bu kitobcha Akademiya xodimlari tomonidan yevropa tillaridan o'zlashmalar o'rniga ishlatilishi kerak bo'lgan forscha so'zlarni o'z ichiga oladi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. *Hozirgi zamonning mashhur izohli lug'atlarini aytib bering.*
2. *Qanday tarixiy lug'atlarni bilasiz?*
3. *«Lug'atnome» ko'p jildli izohli lug'atning muallifi kim?*
4. *«Farnudsar» lug'atining muallifini ayting.*
5. *Eng katta so'zlashuv tili lug'atini kim tuzgan?*
6. *M.Mo'inning izohli lug'ati qanday nomlanadi va necha jildan iborat?*

#### **Mustaqil ta'lim uchun savollar:**

1. *H.Amid tomonidan tuzilgan lug'atlar qanday nomlangan va oxirgi nashri qachon amalga oshirilgan?*
2. *Farhang-e forsi-ye emruz» izohli lug'atining muallifi kim va qachon nashr qilingan?*
3. *«Vajeho-ye mo'savvab-e Farhangeston» lug'at risolalari nima va qaysi vaqtdan nashr qilinadi?*
4. *Oxirgi Eron akademiyasi qanday nomlanadi va qachondan faoliyat yuritmoqda?*
5. *«Lug'atnome» izohli lug'atining birinchi muharriri va noshiri kim?*

#### **Adabiyotlar**

1. Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. – Изд-во Московского университета, 1975. – С.195-197.
2. Рубинчик Ю.А. Лексикография персидского языка. - М., 1991. - С.5-14.
3. Siyoqi D. Farhangho-ye forsi be forsi va forsi be zabonho-yi digar va farhangho-ye mo'uzui va guyeshho-ye mahalli va farhangguneho» - Tehron, 1997.
4. G.-X. Sadri Afshor, N.Ho'kmi, N.Ho'kmi. Farhang-e forsi-ye emruz. - Tehron, 1997.

### 3-MA'RUZA

#### ERONDA TARJIMA (IKKI VA UCH TILLI) LUG'ATLARINING YARATILISHI

**Darsning maqsadi:** Tarjima lug'atlari bilan tanishtirish, lug'atlar haqida yaxlit tasavvur shakllantirish, ularni tahlil qila olish malakasini hosil qilish va b.

**Tayanch so'z va iboralar**

- ✓ Ikki tilli lug'at
- ✓ Arabcha-forscha lug'at
- ✓ Forscha-turkcha lug'at
- ✓ Uch tilli lug'at

**Ma'ruza rejasi:**

1. Arabcha-forscha lug'atlar va ularning xususiyatlari.
2. Forscha-turkcha lug'atlar.
3. Yangi davr lug'atlari.

#### Forscha-turkcha lug'atlar

Forscha–turkcha lug'atlar XV asrdan boshlab, fors tili va adabiyotining turk imperiyasida tarqalishi bilan birga yaratila boshlandi. Ular odatda fors tilini o'rganish, boy fors poeziyasini osonroq o'qish va tushunishga yordam berish maqsadida tuzilgan. Eron tilshunosligi va adabiyotshunosligi uchun forscha-turkcha lug'atlar juda katta ahamiyatga ega.

Qoida bo'yicha bu lug'atlar fors tili poeziyasi asosida tuzilgan va o'rta asr leksikasi, forsiyzabon shoirlarning illyustratsiya qilingan ko'pgina sharhlari haqida qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga qamrab olgan. S.I. Bayevskiyning ko'rsatishicha, bu sharhlar ilk va noyob qo'lyozmalardan olingan.

XVII asrdagi forscha-turkcha lug'atlar bilan ham shunday bo'lgan. Abdul Qodir Bag'dodiy tomonidan tuzilgan "Shohnoma" lug'atida salkam 1700 sharh va uning ko'pgina qismi bizgacha yetib kelgan qo'lyozmalardan ilgariroq olingan.

Forscha-turkcha lug'atlar orasida shunday lug'atlar bor ediki, XV asr Eron filologiyasi uchun tuzilgan, lekin hanuzgacha Hasan

Xisoriyning “Shomil ul-lug‘at (To‘liq lug‘at)” kabi chop etilmagan, 2 qismdan tashkil topgan, forscha ism va infinitivlar alohida tushuntirilgan.

XV asr asrning boshqa lug‘atlari ham katta qiziqish uyg‘otadi. Bular: Xatib Rustam Mavlaviyning “Vasilat ul-maqosid fil-lug‘at ul furs”(Forscha lug‘atlarni maqsadlarga yetishishdagi vositalar) lug‘atlaridir.

XVI asrda “Lug‘at-e Xalimi” lug‘ati, shuningdek, mashhur “Lug‘at-e Ne‘matulla” lug‘ati yaratildi. Yana shu asrning so‘ngi lug‘atlari sirasiga she‘riy usuldagi forscha-turkcha lug‘atni ko‘rsatishimiz mumkin. (To‘hfaye shahidi) (Shahidiy sovg‘asi)

XVII asrda forscha-turkcha “Dasturul amal”(“Harakatga ko‘rsatma”) frazeologik lug‘at yaratildi. Bu yerda yana teskarisi, ya‘ni turkcha-forscha lug‘ati XVIII asrda Eronda tuzilgan aytib o‘tishimiz kerak. Eronning Astrobod shahridan chiqqan Mirzo Mehdixonning eski o‘zbekcha-forscha lug‘ati, yana XIX asrda Eronning Xo‘y shahridan chiqqan Mirzo Muhammad Xo‘y tomonidan tuzilgan eski o‘zbekcha-forscha lug‘ati yaratildi. Bu ikki lug‘at o‘zbek olimlari Z.A. Umarov (T.,1967) va T.Sh. Qodirov (T.,1988) tomonidan o‘rganib chiqilgan va o‘zlarining nomzodlik dissertatsiyalarida ko‘satib berganlar.

XX asrda Eronda har xil turdagi forscha – yevropacha va yevopacha-forscha lug‘atlarni tuzish boshlangan. Ayniqsa ularning orasida leksikografik daraja va Sulaymon Xoyimning lug‘atlaridagi materiallar qamrab olgani alohida ajralib turadi. Bular: “Farhang-e yekjeldi-ye englesi-forsi” (“Bir tomli inglizcha –forscha lug‘at”), (Tehron.1982-yil), “Farhang-e yekjeldi-ye forsi-englisi” (“Bir tomli forscha-inglizcha lug‘at”) (Tehron 1954-yil), “Farhang-e forsi-englisi-ye jadid” (“Yangi forscha–inglizcha lug‘at”) 2 tomli (Tehron,1934-1936-yil), “Amsal-e forsi-englisi” (Forscha-inglizcha maqollar) (Tehron 1956-yil) va boshqa lug‘atlari yaratildi.

•50-yillarda Jafariyning 8 tomli “Forscha-fransuzcha” lug‘ati (Tehronda 1956-1958-yillar) chop etildi. Yangi tarjima lug‘atlaridan yana biri “Fransuzcha-forscha” lug‘ati (M.-P.Parsayorning) (Tehron.1994-yil) hisoblanadi.

•Shuningdek J.M.Mirzabekovaning “Ruscha-forscha politexnik lug‘at”(Moskva 1973-yil), I.K.Ovchinikova tomonidan tuzilgan

“Ruscha-forscha”(Moskva 1965-yil) lug‘atlarini keltirishimiz mumkin. U 1998-yilda Tehronda qayta chop etilgan.

### **Arabcha-forscha lug‘atlarning xususiyatlari**

Ularning ko‘pgina qismi arab leksikografiyasi adabiyoti asosida qurilgan, o‘zining boshlanish davri hijriy I asrning boshlanishi, VII asr S.I.Bayovskiyning so‘zlariga ko‘ra bu lug‘atlar arab leksikografiyasini xususiyatlarini qaytarishadi ,ya’ni qisqa qayta ishlangan yoki arab tili izohli lug‘atlarini fors tilidagi tarjimasi edi.

- Bu turdagi lug‘atlar odatda leksikaning keng qamrovini o‘z ichiga olgan ,alifbo prinsipi bo‘yicha qurilgan.

- Ularning ko‘pgina qismi arab leksikografiyasi adabiyoti asosida qurilgan, o‘zining boshlanish davri hijriy I asrning boshlanishi, VII asr S.I.Bayovskiyning so‘zlariga ko‘ra bu lug‘atlar arab leksikografiyasini xususiyatlarini qaytarishadi ,ya’ni qisqa qayta ishlangan yoki arab tili izohli lug‘atlarini fors tilidagi tarjimasi edi.

- Bu turdagi lug‘atlar odatda leksikaning keng qamrovini o‘z ichiga olgan, alifbo prinsipi bo‘yicha qurilgan.

- Bu turdagi arabcha-forscha lug‘atlar XIII asrdan boshlab paydo bo‘ldi. Ular orasidagi birinchi mashhur lug‘at “So‘rox ” edi.

- Maydoniyning “Kitob –as sami-fil-asomi”, Zamaxshariyning “Muqaddimat ul-adab”, “Vatvat” lug‘atlarini shunday lug‘atlar turi deb atasak bo‘ladi. Boshqa turdagi lug‘atlar grammatik ko‘rsatkichlar turlanish va tuslanish asosida tuzilgan.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. *Ilk arabcha-forscha lug‘atlar qaysi asrga taalluqli?*
2. *Bizgacha etib kelgan ilk forscha-turkcha lug‘atlar qaysi asrda yaratilgan?*
3. *XI asrga oid 2-3 ta arabcha-forscha lug‘atlarni nomini ayting.*
4. *Zamahshariy kim?*
5. *XIII-XIV asrlarga oid arabcha-forscha lug‘atlarni sanab bering.*
6. *Lug‘atdon Baxarzi qaysi asrda yashagan va uning lug‘ati qanday nomlanadi?*



7. XVIII asrda tuzilgan arabcha-o'zbekcha-forscha lug'at qanday nomlanadi va uning tuzuvchisi kim?

### **Mustaqil ta'lim uchun savollar:**

1. XV-XVI-XVII asrlarga oid forsha-turkcha lug'atlarning nomini keltiring.

2. «Xulosa-ye Abbosi» qanday lug'at va uni o'zbek olimlaridan kim tadqiq etgan?

3. Rus olimlaridan kim arabcha-forscha va forsha-turkcha lug'atlarni o'rgangan?

4. Inglizcha-forscha va forsha-inglizcha lug'atlar muallifi kim?

### **Adabiyotlar**

1. Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. – Изд-во Московского университета, 1975. – С.197-198.

2. Рубинчик Ю.А. Лексикография персидского языка. - М., 1991. - С.16.

3. Баевский С.И. Арабско - персидские и персидско-тюркские словари и их значение для иранской филологии//Сб. «Иранская филология». -Ташкент, 1966.

4. H.Givi, H.Anwari. Dastur-e zaban-e forsi. – Tehron, 1359.

## 4-MA'RUZA

### FORS TILI GRAMMATIKASINING YARATILISH TARIXI (*DASTURNEVISI*)

**Darsning maqsadi:** Fors tili grammatikasining yaratilish tarixi bilan tanishtirish, grammatik asarlar haqida yaxlit tasavvur shakllantirish, ularni tahlil qila olish malakasini hosil qilish va b.

#### ***Tayanch soʻz va iboralar***

- ✓ Fors grammatikasi yaratilishining Hindiston davri
- ✓ “Mizon-e forsi yo ba`zi qonunot-e forsi”
- ✓ “Qavoid-e forsi”
- ✓ Rukniddin Humoyun Farrux
- ✓ Lugʻat soʻzboshisi
- ✓ «Burhon-e qote»

#### ***Maʼruza rejasi:***

1. Ilk fors tili grammatikasining tarixi.
2. XVIII-XIX asrlarda Hindistonda fors tilida yaratilgan grammatikalar.
3. Eronda yaratilgan birinchi bosma grammatikalar.

### ILK FORS TILI GRAMMATIKASINING TARIXI

Eron olimlari fors tili grammatikasini islom davrigacha oʻrganganmi yoʻqmi bu haqda maʼlumot yoʻq. Qadimgi va oʻrta fors tili asarlarining grammatik qurilishi bizga maʼlum emas. Oʻsha davrdan boshlab bizgacha qadimgi hind tilining grammatik tavsiflashi tilshunos Panining sanskriti saqlanib qolgan.

Islom davridan soʻng fors olimlari bor eʼtiborlarini ular uchun yangi til boʻlgan arab tili—islom dini tiliga qaratdilar. Oʻzining ona tilisining grammatik qurilishini yozish va oʻrganish oʻrniga arab tilining grammatik qurilishini yozadigan, oʻrganadigan mashhur tilshunoslar koʻpaydi. Bu tilshunoslar Sibaveyx, Durustveyx, Abu Ali Sino, Zamahshariy va boshqalar. Ular turli davrlarda va islom dunyosining turli davlatlarida yashagan. Ularning butun boshli asarlari arab grammatikasiga bagʻishlangan yoki asarning ozginagina qismi fors tili grammatikasi qurilishiga bagʻishlangan

Zamonaviy Eron olimlarining fikricha, o‘sha davr tilshunoslari ona tillariga ega bo‘lsa-da, uni o‘rganishga ehtiyoj yo‘q edi va “beg‘amlik” bilan arab tilini o‘rgandilar. Balkim egallagan bu tilini osonlashtirish maqsadida vatandoshlari bilan arab tilida yozishma yozishgandirlar.

Fors tilining grammatikasi haqida birinchi kitob zamonaviy eron tilshunosi Mrhri Bakerining fikricha Reylik olim Shamsiddin Muhammad bin Keysa Razi tomonidan “Kitob al-muajjam fi maayir-e ash‘ar al-ajam” nomli kitobi XII asr boshlarida arab tilida yozilgan. Kitobda morfologiya, so‘z tuzilishi, aruz savollari, rifmovaniya, ritorika, masdar, sifatdosh va boshqalar haqida so‘z borgan.

Yuqorida qayd qilib o‘tganimizdek, fors tili leksikografiyasi XII-XVI asrlarda fors tilining Hindistonda keng tarqalishi bilan bog‘liq. Dehli sultonligida rasmiy adabiy til maqomining berilishi, XVI asrdan esa Buyuk Mo‘g‘ullar davlatida saroy tili maqomining berilishi xalq ehtiyojini qondirish uchun ko‘psonli fors tilining izohli lug‘ati yaratilaga zamin yaratdi.

Fors tilining grammatikasi haqida birinchi kitob zamonaviy eron tilshunosi Mehri Boqerining fikricha Reylik olim Shamsiddin Muhammad bin Keysa Razi tomonidan “Kitob al-muajjam fi maayir-e ash‘ar al-ajam” nomli kitobi XII asr boshlarida arab tilida yozilgan. Kitobda morfologiya, so‘z tuzilishi, aruz savollari, rifmovaniya, ritorika, masdar, sifatdosh va boshqalar haqida so‘z brogan.

Yuqorida qayd qilib o‘tganimizdek, fors tili leksikografiyasi XII-XVI asrlarda fors tilining Hindistonda keng tarqalishi bilan bog‘liq. Dehli sultonligida rasmiy adabiy til maqomining berilishi, XVI asrdan esa Buyuk Mo‘g‘ullar davlatida saroy tili maqomining berilishi xalq ehtiyojini qondirish uchun ko‘psonli fors tilining izohli lug‘ati yaratilaga zamin yaratdi.

## **XVIII-XIX ASRLARDA HINDISTONDA FORS TILIDA YARATILGAN GRAMMATIKALAR**

▪XVIII asrga taalluqli 2 ta hind nashri mavjud:

1. “Mizon-e forsi yo ba`zi qonunot-e forsi” (Fors tili normalari yoki ba`zi qonunlari). Muallif – eronlik Shushtar shahridan chiqqan

Jamoliddin Husayn Said Nurillo Mar`oshi-ye Shushtari. Azimobod 1751-yil.

2. "Haft go'1" (Yetti gul). Muallif- fors tili grammatikasini she`riy tarzda tasvirlagan Kamtapurshod, Loknau, 1789-yil.

XIX asr hind nashrlarining katta qismini o'z ichiga oladi. Bular 10 dan ortiq kitoblardir. Ulardan bir nechtasi quyidagilar:

▪ "Qavoid-e forsi" (Fors qonuni). Muallif –Ravshanali , Xoqnai, 1800-yil;

▪ "Gramer" (Grammatika). Muallif –Atoulo , Kalkutta, 1828-yil, 80 bet;

▪ "Matla ol-ulum va majma ol-funun"(Ilk bilimlar va ilmiy yig'ilish). Muallif-Vojid Alixon, Loknau, 1866-yil, 159 bet;

▪ "Maxzan ol-favoid yo xazonot ol-usul" (Foydali maslahatlar ombori va metod xazinalari). Muallif-Muhammad Foiq G'ulom Husayn, Loknau, 1844-yil, 182 bet;

▪ "Masdar al-af'ol" (Fe'l masdarlari). Muallif-Said Ashrafali Gulshanobodi, Bombry, 1870-yil;

▪ "Dastur-e porsiy omuz"(Fors grammatikasi). Muallif-Abdulla Saxrordi, Agra, 1877-yil, 85 bet.

XX asr boshlarida Hindiston fors tili grammatikasini fors tilida chiqarishni davom ettirdi. Masalan: "Naxr –e fasohat" (Gapga chechanlik anhuri). Muallif-Muhammad Mirzo Kotel, Loknau, 1900-yil. "Qand-e forsi"(Fors shirinligi). Muallif-Seyfiddin Maxalloti, Bombay, 1922-yil, 432 bet.

Aftidan barcha keltirilgan nashr etishlar to'liq fors tilini ko'p yoki oz miqdorda yoritgan va bazan tilning alohida bo'limlariga to'xtalib o'tgan.

Afsuski, barcha keltirilgan ma'lumotlar bizgacha yetib kelmagan va biz ishonch bilan yaxshi yoki yomon tomonlarini baholay olmaymiz.

Shunga qaramasdan, aytish mumkinki, hind olimlari shu bilan birga Erondan chiqqan ayrimlari fors tili grammatikasini tuzish va nashr etishni XVIII asr o'rtalarida boshlagan. Eron olimlari bu ishni 250 yil o'tib, rus olimlari esa 100 yildan so'ng amalga oshirganlar.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. *Sibavayx kim?*
2. *M.Boqeriyning fikricha, fors tili grammatikasini birinchi bo'lib kim tuzgan?*
3. *O'rta asrlarga oid qaysi izohli lug'atda fors tili grammatikasi haqida to'liq so'zboshi keltirilgan?*
4. *Qaysi grammatik asarda 100 dan ortiq fors tili dasturi tavsiflanadi?*
5. *«Burhon-e qote» izohli lug'atining muallifi kim?*

### **Mustaqil ta'lim uchun savollar:**

1. *Qaysi mamlakatda va qachon fors tili grammatik tavsiflarining ilk bosma nashrlari vujudga keldi?*
2. *Eronda fors tili grammatikasining birinchi bosma nashrlari qachon yuzaga keldi?*

### **Adabiyotlar**

1. Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. – Изд-во Московского университета, 1975. – С.197-198.
2. Рубинчик Ю.А. Лексикография персидского языка. - М., 1991. - С.16.
3. Баевский С.И. Арабско-персидские и персидско-тюркские словари и их значение для иранской филологии// Иранская филология. -Ташкент, 1966.
4. Мухамедова Н.А. Вклад индийских учёных в персоязычную лексикографию и грамматику.
5. Boqeriy M. Tilshunoslikka kirish (fors tilida). - Tabriz, 1988.

## 5-MA'RUZA

### ERONDA YARATILGAN GRAMMATIK ASARLAR

**Darsning maqsadi:** Grammatik asarlar haqida yaxlit tasavvur shakllantirish, ularni tahlil qila olish malakasini hosil qilish va b.

**Tayanch soʻz va iboralar**

- ✓ Sarf-o-nahv
- ✓ Dastur-e zabon
- ✓ Dastur-nome
- ✓ Tarh-e dastur-e zabon-e forsi
- ✓ Dastur-e jome'-e zabon-e forsi
- ✓ "Dastur-e soʻxan"
- ✓ M.H.Isfahoniy
- ✓ H.A. Giviy va H. Anvariy

**Ma'ruza rejasi:**

1. Eronda fors tili grammatikasining birinchi nashrlari.
2. Mirzo Habib Isfahoniy grammatikasining ahamiyati.
3. Abdulazim Qarib, besh professor va boshqalarning maktab grammatikalari.
4. Abdulrahim Humoyun-Farrux, Abdulrasul Xayyompur, Muhammad Javod Mashkur grammatikalari.
5. Hasan Anzoʻliy, Hasan Anvariy va Hasan Ahmadiy Giviylarning yangi grammatikalari.

• Eron olimi Jalol Humoyi XIX asrning oʻrtalari va ikkinchi yarmida yaratilgan quyidagi uchta grammatikani qayd qiladi:

• 1) Abdulkarim bin Abu al-Qosim Iravoniyning "Qavoyed-e sarf-o nahf-e forsi" ("Fors tili morfologiyasi va sintaksisi qoidalari") (Tabriz, 1846);

• 2) Hoji Muhammad Karimxon ibn Ibrohim Kermoniyning "Sarf-o nahf-e forsi" ("Fors tili morfologiyasi va sintaksisi") (1858);

• 3) nomaʼlum muallifning "Tanbih as-sabiyan" ("Yoshlar uchun qoʻllanma") (Istanbul, 1880).

• Mana shu barcha kitoblar nomi Roʻkniddin Humoyun-Farruxning roʻyxatida taʼkidlab oʻtilgan. Eron olimlaridan M.Boqeriy va J. Humoyining taʼkidlashicha, fors tili grammatikasi XX asrgacha

taqlidiy xarakterda bo‘lgan bo‘lib, asosan arab grammatikasi qonun-qoidalari va atamashunosligi asosida yaratilgan.

- Fors tili grammatikasini arab grammatikasidan ajratgan olim Mirzo Habib Isfahoniydir. M.H.Isfahoniy grammatikasi Eronda yaratilgan boshqa grammatikalar uchun namuna bo‘ldi. U XIX asr oxirida ikkita kitob: “Dastur-e so‘xan” va “Dabeston-e forsi”ni chop etdi. U fors tilida 10 ta so‘z turkumini ajratdi. Bular: ot, sifat, olmosh, gumon olmoshi, fe‘l, fe‘liy yasalma, fe‘l aniqlovchisi, yuklama, yordamchi so‘zlar, undovlar.

- Mirzo Habib Isfahoniy birinchi bo‘lib “grammatika” so‘zini “dastur” deb atagan. J.Humoyining yozishicha, M.H.Isfahoniy arab, turk va bir nechta yevropa tillarini yaxshi bilgan va fors tili grammatikasini tuzishda o‘z bilimlaridan foydalangan.

- XIX asr oxirida 1896-yilda yana bir grammatika - “Lison al-ajam” (“Fors tili”) nashrdan chiqdi. Muallifi - Mirzo Hasan ibn Muhammad Taqi Toleqoniy. U arab tiliga taqlid qilib yozilgan bo‘lib, uchta so‘z turkumi ajratiladi: *esm* (ot), *fe‘l* va *horuf* (ko‘makchilar)dir.

- XIX asrning oxiri - 1899-yili “Zabonomuz-e forsi” (“Fors tili darsligi”) nashrdan chiqdi. Muallifi - Mirzo Ali Akbarxon Nozem al-Atebbo. U mashhur filolog olim va yozuvchi Said Nafisiyning otasi bo‘lib, shifokor, tibbiyot kitoblari hamda “Farnudsar” (yoki “Farhang-e Nafisi”) lug‘atining muallifidir.

- Mirzo Abdulazimxon G‘aribning “Dastur-e zamon-e forsi be uslub-e alsene-ye mag‘rib-zamin” (“G‘arb tili uslubidagi fors tili grammatikasi”) grammatikasi struktur jihatdan M.H.Isfahoniy grammatikasiga yaqin va yevropa tillaridagi kabi 9 ta so‘z turkumini ajratgan.

- Qavim va besh professor: A.Qarib, J.Humoyi, R.Yosamiy, M.Bahor, B.Foruzonfarlarning grammatika kitoblari (Tehron, 1949-1950) Eronda maktab grammatikasi sifatida mashhur.

- Abdurasul Xayyompurning “Dastur-e zamon-e forsi” (Tehron, 1955) va “Dastur-e jome-e zamon-e forsi” (Tehron, 1957) kitoblari barcha grammatik asarlar ichida to‘liq bo‘lgan grammatika hisoblanadi va u oliy o‘quv yurti talabalari va mutaxassislarga mo‘ljallangan.

- Muhammad Javod Mashkurning juda mashhur bo‘lgan “Dasturnome” (“Grammatika”) kitobi 1968-yili Tehronda nashr

qilingan. Bu sara grammatikalardan hisoblanib, unda fors tili grammatikasi atroflicha yoritilgan.

- 1976-yili Parviz Notel Xonlariyning mashhur “Dastur-e zabon-e forsi” grammatikasi dunyo yuzini ko‘rdi. Muallifning o‘zi mashhur olim, Firdavsiy mukofoti laureati sohibi. U o‘zining bu grammatika kitobida tilni tasviflash uchun yangi metod (raveshe toze)ni ilgari suradi.

- Mashhur olim Muhammad Muinning “Tarh-e dastur-e zabon-e forsi” (“Fors tili grammatikasi ocherki”)ni nazardan chetda qoldirmaslik lozim. Bu kitob to‘rtta broshyura shaklida: “Izofe”, “Ism-e masdar - hosel-e masdar” (1963), “Mo‘frad va jam’” (1962), “Ism-e jins. Ma‘refe va nakare” (1958). Muallif o‘z oldiga fors tilining to‘liq grammatikasini tuzishni maqsad qilib qo‘ygan.

- Muin olg‘a surgan g‘oya juda ham tahsinga loyiqdir. Biroq muallif tilning butun qismlarini faqatgina mumtoz adabiyot ko‘rinishidagi misollar bilan keltiradi. Hozirgi zamon tilini rad etgan holda bunga katta e‘tibor bermaydi. Bir xil joylarda bir qancha xatolarga yo‘l qo‘yadi. O‘zining “Izofa” broshurasida muallif fors tilining izofasini nemis tilidagi qaratqich kelishigi, ingliz tilidagi o‘rin-payt kelishigi va fransuz tilidagi “de” predlogi bilan solishtiradi. Oqibatda kelishik, predlog va izofani aralashtirib yuboradi.

- Muin “Ism-e masdar – hosel-e masdar” broshurasida fors tilida so‘z yasalishini tavsiflaydi. Bunda fe‘l formalarining suffikslari yordamida yasalgan hamma fe‘l formalarini “ism-e masdar”ga tegishli deydi. Uning boshqa broshuralari ham e‘tiborga loyiq.

- 50-60-70-yillarda Eronda ko‘plab nazariyotchi olimlar yetishib chiqdilar va ularning asarlari nashr qilindi: H.Sami‘i (Tehron, 1954), D. Syoqiy (Tehron,1966), Rezo (Isfahon, 1962), P.A‘zam (Tehron,1976), Z.Mirmironi va Xazoeliy (Tehron,1972) va boshqalar.

- 80-90-yillarda yuqori ilmiy-metodik darajada yozllgan asarlar paydo bo‘ldi.

- Abbasali Mo‘ulaviyning “Dastur-e zabon-e forsi” (oliy o‘quv yurtlariga kirayotganlar uchun) grammatikasi boshqa grammatik asarlardan farqli nazariy materiallarning juda ham qulay va hozirgi zamon manbalaridan olinganligi bilan ajralib turadi.

- Hasan Ahmadiy Giviy va Hasan Anvariylar hammualliflikda yozgan “Dastur-e zabon-e forsi” grammatikalari ayniqsa e‘tiborga



molikdir. Kitob bir necha bor nashr etilgan. 1984-yil birinchi, 2005-yilga kelib 24- bor nashr qilindi. Balki, hozirda yana qayta nashrdan chiqarilgandir. Kitob Universitet talabalari va mutaxassislarga mo'ljallangan.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. *Eronda fors tili grammatikalarining birinchi nashri qachon amalga oshirilgan?*
2. *«Qavoid-e sarf-o-nahv-e forsi» kitobini kim yozgan?*
3. *Mirzo Habib Isfahoniy kim?*
4. *«Lison al-ajam» kitobining muallifi kim?*
5. *«Zabanomuz-e forsi» grammatikasining muallifi kim?*
6. *Fors tili grammatikasini evropacha grammatika metodi asosida kim birinchi bo'lib tuzgan?*

#### **Mustaqil ta'lim uchun savollar:**

1. *Eronda qanday maktab grammatikalari nashr qilingan?*
2. *Fors tilining eng zamonaviy darsligi qanday nomlanadi va uning muallifi kim?*
3. *Fors tili grammatikasini birgalikda yozgan ikki tilshunos nomini va nashr yilini ayting.*

#### **Adabiyotlar**

1. G'arib A., Bahor M.-Sh., Foruzanfar B., Yosemi R., Humoi J. *Dastur-e zaban-e forsi.* - Tehron, 1949-50.
2. Humoyun-Farrux A. *Dastur-e djame'e zaban-e farsi.* - Tehron, 1957.
3. Moin M. *Tarh-e dastur-e zaban-e forsi.* - Tehron, 1972.

## 6-MA'RUZA

### FORS GRAMMATIKASINING AYRIM XUSUSIYATLARI

**Darsning maqsadi:** Fors grammatikasining ayrim xususiyatlari bilan tanishtirish, grammatik asarlar haqida yaxlit tasavvur shakllantirish, ularni tahlil qila olish malakasini hosil qilish va b.

*Tayanch soʻz va iboralar*

- ✓ Arabcha grammatik terminologiya
- ✓ Klassik poeziya
- ✓ Kelishik kategoriyasi
- ✓ Soʻz turkumi (baxshho-ye soʻxan)
- ✓ Esm-e foʻel va esm-e mafʻul
- ✓ Mustaqil soʻzlar (moʻstaqel)
- ✓ Koʻmakchilar (hoʻruf)
- ✓ Yangi metod

**Maʼruza rejasi:**

1. Klassik poeziya asosiy lingvistik material sifatida.
2. Arab terminologiyasi va grammatik anʼanalar fors grammatikasi bayonida.
3. Eron dasturnavislarining soʻz turkumlari haqidagi qarashlari.

### 1990-yillarga qadar fors tili grammatikasining xususiyatlari

□ Asosan fors-tojik klassik poeziyasi maʼlumotlari asosida tuzilgan.

□ Fors tiliga ogʻzaki nutqdan kirib uning ajralmas qismiga aylangan innovatsiyaning yangi formalari eʼtibordan chetda qolgan.

□ Moʻzore-ye axbori va mozi-ye mutlaq deb nomlangan oʻtgan va aniq oʻtgan zamon aytib oʻtilmagan. Bu haqda birinchi marta J. Mashkur oʻzining “Dasturnoma”sida va Mavlaviy, keyin Giviy va Anvari “Dastur-e zabon-e forsi” kitoblarida bu haqda aytib oʻtganlar.

□ mi- old koʻmakchisiga oʻzgargan qadimgi hami- koʻmakchisi va oʻtgan zamon feʼlining old qoʻshimchasi boʻlgan be- old qoʻshimchasiga juda katta ahamiyat qaratilgan.

□ Ularning diqqat markazlarida tilning morfologik tuzilishi turar edi.

□ Gapning sintaksis va soʻz birikmasi muammosi juda kam yoritilgan.

□ Kelishiklarni zoʻrlab kiritish kuzatiladi.

Shu jihatdan baʼzi kitoblarda 4 ta kelishikni uchratamiz: ***holat-e foʻeli, holat-e mafʻuli, holat-e ezofe, holat-e nedo.***

Bundan tashqari, boshqa tadqiqotchilarda bundan ham koʻp uchraydi: Mulaviyda 7 ta, A. Xayyompurda esa 13 ta kelishik sanab oʻtilgan.

### **Arab tili terminologiyasi va grammatik anʼanalar fors grammatikasi bayonida**

□ Hozirgacha fors tilida arab terminologiyasidan foydalaniladi. Turli grammatik va fonetik, leksik koʻrinishlarni tahlil qilishda arab anʼanasining taʼsiri sezilib turadi. Mehri Boqeriy buni bir tilga boshqa til grammatik qoidalarini “zoʻrlab yopishtirish” deb ataydi.

Bunday holatga quyidagi misollarni keltirish mumkin:

□ 1. Arab tiliga xos boʻlgan sifat-dosh formalari va fors tilidagi hozirgi va oʻtgan zamon sifat-doshlari arab tilidagi sifat-doshlar kabi ***esme foʻel va esme mafʻul*** terminlari bilan ataladi. Vaholanki, bular boshqa-boshqa tushunchalardir.

□ 2. Soʻz turkumlari ham arabcha terminlar bilan nomlangan: *esm, sefat, fel, zamir, qeyd* va hokazo.

Baʼzi oʻrinlarda ularni fors tiliga tarjima qilishga harakat qilindi. *Mozi* oʻrniga goʻzashte, *mosnad on eleyh* (ega) oʻrniga *nehod*, *mosnad* (kesim) oʻrniga goʻzore qoʻllaniladi. Bu qoidaga har doim ham amal qilinavermaydi.

### **Eron dasturnavislarining soʻz turkumlari klassifikatsiyasi borasidagi qarashlari**

A. Hayyompurning soʻz turkumlari haqidagi qarashlari

□ Olmoshni ot va ravishdan ajratib boʻlmaydi. Bitta soʻz ham ot, ham olmosh boʻlib kelishi mumkin boʻlganidek, gapdagi vazifasiga koʻra ravish va olmosh boʻlib kelishi ham mumkin. “Haqiqiy ravish”ga aylanmagan “mutloq sifat”ni topish mumkin emas, deydi.

□ Sonni sifatga taalluq A. Hayyompur o‘z klassifikatsiyasining negizi sifatida morfologik, semantik va so‘z yasovchi alomatlarni chetga surgan holda faqat *sintaktik mezonni* oladi.

□ Ushbu nazariyani qolgan dasturnavislar ham maqullaydilar. Xususan, Xonlariy, A.Mavlaviy, H.Anvariylar bu tasnifga ergashdilar.

□ li deb, ularni “sefat-e sho‘more” deb ataydi.

### Fors tili grammatikasining ayrim xususiy jihatlari

□ So‘z turkumlari aniq xarakterga ega emas va alohida tahlil qilinmaydi.

□ Fors tilidagi asosiy ot kategoriyalari: oddiy va yasama, aniq va mavhum, birlik va ko‘plik, sodda va murakkab otlar alohida sanab o‘tilmaydi.

So‘z turkumlar i	Beshta professor 1949-1950	Humoyun Farrux. 1960	Mashkur. 1969	Xayyomp ur.1974	Xonlariy. 1976	Moulaviy. 1981
Ot	اسم	اسم	اسم	اسم	اسم	اسم
Sifat	صفت	صفت	صفت	صفت	صفت	صفت
Fe‘l	فعل	فعل	فعل	فعل	فعل	فعل
Olmos h	كنايه	ضمير	كنايه	-	-	-
Ravish	قيد	قيد	قيد	قيد	قيد	قيد
Son	عدد	-	عدد	-	-	-
Ko‘ma kchi	حرف اضافه	حروف	حرف اضافه	حروف	حرف اضافه	حروف
Bog‘lo vchi	حرف ربط	حروف	حرف ربط	حروف	حرف ربط	حروف
Undov	صوت	-	اصوت	شبه جمله	اصوت	شبه

						جمله
--	--	--	--	--	--	------

### **Nazorat uchun savollar:**

1. *Eronda tuzilgan fors grammatikasiga xos xususiyatlarni aytib bering.*
2. *Eronda jonli fors tili asosidagi grammatika qachon yaratildi?*
3. *Eronlik tilshunoslar «holat» termini ostida qanday hodisani nazarda tutadilar?*
4. *«Ism-e nakare» va «ism-e ma'refe» deganda nima tushuniladi?*
5. *Eronlik lingvistlar fors tilida qanday so'z turkumlarini ajratadilar?*
6. *Eronlik lingvistlar fors tilida qanday so'z turkumlarini ajratadilar?*
7. *Ular «Sefat-e adadi» termini ostida qanday hodisani nazarda tutadilar?*

### **Mustaqil ta'lim uchun savollar:**

1. *Modal so'z, undov va yuklamaning forscha nomini ayting.*
2. *P.-N. Xonlariyning «yangi metod»ini izohlang.*
3. *Ega va kesimning forscha nomini ayting.*
4. *Hasan Ahmadi Givi va Hasan Anvari hammuallifligidagi grammatikaning farqli jihatlarini tushuntiring.*

### **Adabiyotlar**

1. Ю.А. Рубинчик. Персидский язык. - М.1960.
2. Л.С. Пейсиков. Вопросы синтаксиса персидского языка. - М.,1959.
3. А. Хаууомпур. Dastur-e zaban-e farsi. Tehron, 1974.
4. Н.А. Мухамедова. Теоретическая грамматика персидского языка. - Т., 1994.
5. Н.А. Мухамедова. Классификация частей речи персидского языка в трудах иранских лингвистов // Сб. «Восточное языкознание». - Ташкент, 1990.

## 7-8-MA'RUZA

### FORS TILI NAZARIYASI VA UMUMIY ERON TILSHUNOSLIGI BO'YICHA ASARLAR PURISTIK VA SOTSIOLINGVISTIK ASARLAR

**Darsning maqsadi:** Fors tili nazariyasi va umumiy eron tilshunosligi bo'yicha asarlar, puristik va sotsiolingvistik asarlarni tanishtirish.

#### **Tayanch so'z va iboralar**

- ✓ Purizm
- ✓ Sotsiolingvistika
- ✓ Diglossiya
- ✓ «Sof» til
- ✓ Словоупотребление
- ✓ Neologizm
- ✓ Arxaizm
- ✓ Yozuv islohoti
- ✓ Imloni tartibga solish va unifikatsiya qilish
- ✓ «Hamza» muammosi

#### **Ma'ruza rejasi:**

- Nazariy tadqiqotning boshlanishi (XX asrning 30-yillari).
- Fors tili leksikasiga oid asarlar yaratilishida puristik g'oya ta'siri.
- Sotsiolingvistik tadqiqot.
- Fors yozuvi islohoti va fors imlosini takomillashtirishga bag'ishlangan asarlar.

Bu maxsus kursning qismi, eroniy tillarni o'rganish, ayniqsa Eron tilshunoslari asarlarida Eronda rivoj topgan fors tili bilan qisqacha tanishtirishga bag'ishlanadi.

Leksikografik tadqiqot va fors tilini nazariy tavsiflashdan tashqari, eron lingvistikasi g'oyasi yana fors va eron tilshunosligining ilmiy-umumnazariy g'oyalarning muammolari yo'nalishida ham rivoj topgan. Bu yo'nalish XX asrning 30-yillaridan boshlab aniqlana boshlandi. Tilning alohida tamonlarini va uning bo'limlarini o'rganishni maqsad qilib qo'ygan maktablar va oqimlar paydo bo'la

boshladi: fonetika, morfologiya, sintaksis, tarix va leksika. Bu davrda Erondagi til o'rganish muammolaridan biri fors tilining leksikasi edi.

Lingvistikada ikkita lug'at tarkibini ko'rish aspekti mavjud: sotsiolingvistik va lingvistik. Sotsiolingvistik aspekt, tildan tashqari leksika rivojining sabablarini xalqning tarixi, ijtimoiy muammolari orqali o'rganadi. Bunda leksika rivojini o'rganish ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy o'zgarishlarni aks ettiradi va belgilaydi.

Bu muamoning boshqa aspekti - lingvistikadir, u leksikaning shakllanish usul va yo'llarini ko'rib chiqib, ya'ni lug'at tarkibida sifat-miqdor o'zgarishlar qanday sodir bo'layotgani haqida javob beradi. Bunda birinchi navbatda leksikaning ichki lingvistik muammolariga baho beriladi: so'z yasalishi, semasiologiya, frazeologiya, terminologiya va hokazo.

Fors tili leksikasini o'rganishda ushbu ikkita aspekt, ayniqsa sotsiolingvistik aspekt 40-70-yillarda eron mutaxassislari tomonidan shiddatli o'rganila boshlandi. Bunday shiddatga Rezo shoh hokimiyatining (XX asr boshi, ikkinchi jahon urushidan avval) oxirgi davrida rivojlanayotgan puristik g'oyalar sabab bo'lgan.

Fors tiliga nisbatan til siyosati "ulug' fors tilini qayta yaratish", uni barcha chet tillaridan "tozalash"dan iborat edi. Ikkita Til va adabiyot akademiyasi tuzildi: 1935-yil va 1968-yil, ularning asosiy faoliyati g'arbiy Yevropa, arab va boshqa so'zlarni yuqotish va ularni sun'iy o'ylab topilgan forsiy so'zlar bilan almashtirishga qaratilgan edi.

Purizmda har xil oqimlar paydo bo'la boshladi: ashaddiy va mu'tadil tarafdorlar. Birinchilari fors tilining qadimgi va o'rta o'lik til – fors tilining leksikasini qayta ishlash yo'li bilan chet so'zlardan to'la "tozalash"ni talab qilardilar. Real g'oyalarni ilgari surgan mo'tadillik tarafdorlar ilk yangi fors tili leksikadan foydalanardilar va fors tilini barcha chet so'zlardan tozalashni maqsad qilmas edilar.

Ilm sohalar, ma'muriy-boshqaruv apparatlari uchun eski terminlar o'rniga yangilari yaratildi, fan, texnika, madaniyat va hokazolarni tushunish uchun yangi terminlar ishlab chiqildi, har xil turdagi terminlar lug'ati yaratildi.

Bu davrda fors tilining sotsiolingvistik savollariga bag'ishlangan ko'plab asarlar ham paydo bo'ldi.

1944-yildan Akademiyaning nashri - "Nome-ye farhangeston» jurnali nashrdan chiqqa boshladi, unda fors grammatikasi, leksikasi va adabiyotidan maqola va xabarlar chop etilardi. Bu jurnalning turli sonlarida Purdovud, Abdulazim Gʻarib, Xusash Samiyy va boshqa lingvistlarning asarlari chop etilardi.

Shunday qilib, bu jurnalning 1944-yildagi birinchi sonida: Purdovudning «Kaleme-ye farhangeston" maqolasi, 1945-yili ikkinchi sonida A. Gʻaribning "Pasvandho-ye ettesof molekiyat" ("Sifat va mansublik suffikslari") maqolasi, 1948-yildagi sonida Husayn Samiyyning "Qoyede-ye este'mol-e ba'zi az kalemot" ("Ba'zi soʻzlarning ishlatilish qoidalari") va boshqalar chop etilgan edi. Gʻarib oʻzining maqolasida chet tillaridan oʻzlashgan oʻzlashmalar oʻrniga, kammahsul va sermahsul suffikslarni (-nok, -ogin, -gin, -yor, -mand va boshqalar) ishlatish gʻoyasini ilgari surgan.

H.Samiyy maqolasini yozishiga ba'zi bir rasmiy va adabiy ishlarida soʻzlar ishlatilish xatoliklari, Akademiya tavsiya qilgan neologizmlarning notoʻgʻri tushunilishi va qoʻllanilishi, misol uchun: oin - oiname; ateshneshon - ateshneshoni, behdosht - behdori, bishine, kamine, darine va hokazo.

Hajmi ancha katta boʻlgan "Xoʻrmoʻzdnome" ("Xoʻrmuzdaga (bagʻishlangan) kitob") fors tilining lugʻat tarkibi haqida izoh beruvchi monografiya, eron lingvisti Purdovud (1953-yil, Tehron) tomonidan yozilgan. Kitobning birinchi bobida muallif oʻsimliklarnig etimologik nomlarini (nishkor, berendt, terenj, bang va boshqalar), ikkinchi bobida Purdovud nuqtai nazarida - bu davrda tilga kirgan "notoʻgʻri" soʻzlar: (artesh, pul, geran, tuman va hokazolar).

Tarixchi va lingvist, Erondagi jamoatchilik faoli, shuningdek, tilni yangi soʻzlar yaratish yoʻli bilan "tozalash" muammolari haqida bir qator asarlar muallifi - Ahmad-Kasraviyning asarlari fors sotsiolingvistikasiga katta qiziqish uygʻotadi. "Zabon-e pok" ("Sof til", 1943), "Kofnoma" ("Kof harfi haqidagi kitob", 1953), "Zabon-e forsiy va roh-e raso va tavono gardonidan-e on" ("Fors tili va uning boyligi va foydalik tarafi", 1955) va hokazo monografiyalar uning qalamiga mansub. A. Kasraviyning sotsiolingvistik rejadagi asosiy ishi, uning "Zabon-e pok" kitobi hisoblangan. Unda fors tili islohotlari va uning ortiqcha chet tillardan tozalash talabi aks ettirilgan. Muallifning oʻzi leksika va morfologiyasi sunʼiy oʻzgartirilgan, "isloh



qilingan", "eng yaxshi" fors tilidan foydalangan. Kitob soʻngida Kasraviy foydalangan terminlar lugʻati va ularning izohi berilgan. Professor L.S. Peysikov soʻziga qaraganda, Kasraviy ishlab chiqqan grammatik terminologiya hozirgacha fors tilida aniqlanmagan (Peysikov, 1975). Ammo shuni aytib oʻtish joizki, A.Kasraviy tavsiya qilgan soʻz yasovchi affikslar quyidagi neologizmlarda qoʻllanilgan: soxtor - tizim, naveshtor - insho, padtan - antitelo, padzivho-antibiotiklar va hokazo, ular keyinchalik ikki jildlik forscha-ruscha lugʻatning yangi soʻzlar muqaddimasiga kirgan.

P.N. Xonlariy ushbu davrning sotsiolingvistika muammosi bilan faol shugʻullangan yorqin eronlik olim edi, u Eron filologiyasining ilmiy-tajribaviy markazi ("بنياد فرهنگ ايران") rahbari edi. U oʻz asarlarida til – bu "jamoatchilikda sodir boʻlayotgan voqealar va hodisalar oynasi" deb taʼkidlaydi. Uning "زبانشناسی و زبان فارسی" ("Tilshunoslik va fors tili", 1969) nomli maqolalar toʻplami oʻz ichiga 21 maqolani olgan bulib, uning mundarijasini 5 mavzuli guruhga boʻlsa boʻladi.

1. Ekstralingvistik omillar natijasida fors tili leksikasining yangilanish muammolariga bagʻishlangan. Bu – "زبان و جامعه" ("Til va jamoatchilik"), "تحول زبان" ("Tilning evolyutsiyasi") va boshqa maqolalar.

2. Fors tilini chet tildan, shuningdek, soʻzlarni notoʻgʻri qoʻllashdan "himoyalash"ga atab yozilgan maqolalar. Bularga "Zabon-e yajuj-o-madjuj", "Defoʻ az zabon-e farsi" ("Fors tilini himoya qilish") va boshqa maqolalar kiradi.

3. Sotsiolingvistika eng qirrali masalalaridan boʻlmish diglossiya muammosi boʻyicha maqolalar: "Lafz-e ome va lafz-e qalam" ("Oddiy va adabiy til") va hokazolar.

4. Erondagi maktab taʼlim tizimiga, ayniqsa fors tili va adabiyotining oʻrganilishiga Xonlariyning qarashlaridan iborat maqolalar: "Tadris-e adabiyot-e forsi" ("Fors adabiyotini oʻqitish"), "Dars-e forsi" ("Fors tili darsi") va hokazolar, ularda muallif eron olimlariga murojaat qiladi va ularni xato holatlarni toʻgʻrilash uchun maktab taʼlimiga aralashishlarini iltimos qiladi.

5. Fors yozuvining islohoti haqidagi maqolalar: "Xat va zabon" ("Yozuv va til"), "Zabon va xat", "Dar boraye tagʻiir-e xatt-e forsi"

("Fors yozuvining islohoti haqida"), "Shive-ye xatt-e forsi" ("Fors yozuvining uslubi") va boshqalar.

Arab yozuvi - Erondagi savodlik tarqalishiga to'siq deb hisoblaydigan fors yozuvining tarafdorlari bilan Xonlariy rozi emas. U, shuningdek, arab yozuvidan voz kechish milliy urf-odatlardan xalos etadi va mamlakatni klassik adabiy merosdan uzib tashlaydi, deb o'ylaydigan insonlarning fikriga qo'shilmaydi. Natijada, u fors orfografiyasi va orfoepiyasi bilan bog'liq ko'p muammolarni yechmay turib, yozuv islohotiga o'tishga shoshilmaslik kerakligini tushuntiradi.

Olim, shoir va Tude Eron xalq partiyasi MKning a'zosi Ehson Tabariy ham sotsiolingvistika muammolarini "Do'nyo" (№3, 1972) jurnalida chop etilgan "Bor-e digar dar boraye zabon forsi va xat" ("Yana bir bor fors tili va yozuvi haqida") maqolasida ko'rib chiqqan. E. Tabariy til va so'zlashuv madaniyati orasidagi bog'liqlik haqida gapirib, ular hozirgi vaqtda fors fonetikasi, orfografiyasi, fannmatikasi va leksikasida sodir bo'layotgan to'ntarilishga (xarj-o-marj) o'zining samarali ta'sirini ko'rsatishi mumkin deb ta'kidlaydi. E. Tabariy - fors yozuv islohoti va uning lotinchaga aylantirilishi tarafdoridir. E. Tabariyning fikricha, "fors ilmiy-texnik tilini yevropa tillariga teng tilga aylantirish" aktual masaladir. U olimlarni rasmiy, adabiy va devonxona tilida mavjud so'zlashuv va doimiy tillarini o'rganishga hissalarini qo'shishga chaqiradi.

60-70-yillarda lingvistlar tomonidan fors yozuvining tartibi va unifikatsiya masalasiga katta e'tibor berilar edi. Bu savol Erondagi yozuv islohoti bilan ham bog'liq edi. Ammo fors tili va uning yozuviga bag'ishlangan Sheroz konferensiyasi (1972-yil)dan so'ng fors yozuv islohoti zarurligi haqidagi maqolalar miqdori ancha susaydi. Olimlar va jamoatchilik faollari S. Nafisiy, A. Baxmanyor, M. Muin, P.-N. Xonlariy va boshqalar islohotlar uchun emas, balki yozuvni bir oz o'zgartirish va mavjud alifboni zamonaviylashtirish bo'yicha chegaranlangan choralarni ko'rishga da'vat qilardilar. Boshqa ko'rinishdagi yozuvlar oldida arab-fors grafikasining ustuvorligini tasdiqlaydigan maqolalar bosib chiqarila boshladi.

Fors orfografiyasini tartibga solishnig to'liq loyihasi 1949-yil Ahmad Baxmanyor tomonidan Dehxudoning "Lug'atnoma" lug'atining kirishida ishlab chiqilgan edi. Loyihada murakkab so'zlarning, ko'makchilarining to'g'ri yozilishi, arab va fors so'zlarida

hamza belgisini to'g'ri yozish haqidagi tavsiyalar mavjud bo'lsa ham, Akademiya a'zolari A. Baxmanyorning loyihasini tasdiqlamadilar. Bu haqida eronshunoslik bo'yicha o'zbek olimi A. Ismoilov "Fors orfografiyasini tartibga solish va unifikatsiyalash" (1979-yil) nomli maqolasida yozadi.

1961-yilda Javod Shariatning "Emlo-ye sahih" ("To'g'ri orfografiya") kitobi nashrdan chiqdi, unda muallif fors va arab so'zlarining orfografiyasini, ularning talaffuzi asosida o'zgartirishni taklif qiladi, misol uchun, x(v)ohar - opa, x(v)ondan - o'qimoq va hokazo so'zlaridagi aytilmaydigan (vov) harfini tushurib qoldirish; emlo - imlo, emzo' -imzo arab so'zlarining oxirida hamza belgisini tushurib qoldirish; vov harflaridan birini arab so'zlarining o'rtasida: tovus - tovus, Dovud - Dovud tushurib qoldirish.

Shuningdek, fe'lning mi- , be- qo'shimchasi, bi, be ko'makchisi, na- inkor yuklamasi, ro poslelogi, ko'plik suffikslari (-ho, -on va hokazolar) birga yoki alohida yozilishidagi savolning turlicha xillari mavjud. X. Navvab (1967-yil), Sh. Rahmoniy (1967-yil), X. Yagmo (1965-yil), E. Tabariy (1970-yil), A. Fuladshekan (1966-yil), J. Sheor (1972-yil), J. Shariat kabi tilshunoslarning bu savol bo'yicha maqolalari nashrlarda chop etilgan.

Aytib o'tilgan mualliflar orasidan A. Fuladshekanning "Fors tili orfografiyasi" (yangi uslub bo'yicha) broshyurasida to'xtalib o'tamiz, bu broshyura o'quvchi va eksternlar uchun mo'ljallangan (Tehron, 1966-yil). Muallif klassik fors-tojik adabiyotining XVIII asr mualliflarini sanab o'tgan, shulardan Nizom ul-Mulkning "Siyosatnoma", Sa'diyning "Guliston", Nizomiy Aruziyning "Chahor maqole", V. Koshifiyning "Axloq-e mo'hsini" va hokazolar, bularni muallif til va orfografiyaning namunasi tariqasida ishlatgan. U o'z kitobining ikkinchi qismida muhim so'zlarning birga yoki alohida yozilish: murakkab so'zlarning to'g'ri yozilishi; "yo" harfining ikkita unlilar orasida yozilishi; "te" harfi bilan tugaydigan so'zlarni qisqa alifga, shuningdek tanvin; hamza orfografiyasini va hokazolarning tartibini beradi. Kitobning katta qismini muallif tomonidan bayon qilingan orfografik qoidalar, muomala, tartib, so'zlashuv, hurmat bilan gaplashish va hokazolarning qoidalari o'rin egallagan.

Biroq fors orfografiyasidagi har xillik hozirgacha davom etmoqda. Hozirgi zamon lingvistlaridan doktor X. Azarannig

Tehronda 1992-yilda chop etilgan "Oyne negoresh" ("Me'yoriy stilistika") asarini ham ta'kidlab o'tish joiz. Bu asarda, fors yozuvining qoidalari, bayon qilish qoidalari haqidagi savollar qo'yilgan; klassik nazm va nasrdan namunalar keltirilgan.

Eron lingvistlarining ko'p yillik bahslari, A. Ismoilov yozishi bo'yicha 70-yillar oxirigacha barchaning roziligini topa oladigan yagona fors yozuvining orfografik qoidalari yaratilmagan. 70-yillar oxirida "Dar maktab-e ostad" ("Professor maktabida") nomli kitobchalar paydo bo'ldi. Ularda yirik olimlar: professor S. Nafisiy, doktor Ziyovuddin Sajadiy radio eshittirishlarda tinglovchilar va olimlarning so'zlarni to'g'ri talaffuz etish, so'zlarni yozish va qo'llash haqida o'z g'oyalarini savol va javob tariqasida aytib o'tganlar. Bu o'z o'rnida so'zlashuv madaniyati, tilning orfoepik va orfografik me'yorlari haqidagi munozaralar edi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. *Fors tili bo'yicha nazariy asarlarning yuzaga kelish davrini ko'rsating.*
2. *Ular bilan bog'liq puristik an'analar va asarlarni aytib bering.*
3. *Purizm harakati bilan bog'liq ishlar mualliflari – tilshunoslar nomini ayting.*
4. *Til siyosatida purizm harakatining mohiyatini tushuntiring.*
5. *A. Kasraviyning tilni «tozalash» masalalariga doir asarlari va ularning ahamiyatini so'zlab bering.*
6. *P.-N. Xonlariyning sotsiolingvistik ishlari haqida aytib bering.*

#### **Mustaqil ta'lim uchun savollar:**

1. *Boshqa olimlarning fors yozuvi islohoti bo'yicha ishlarini bayon qiling.*
2. *Arab-fors imlosini tartibga solish va unifikatsiya qilish zaruriyati haqidagi ishlar haqida aytib bering.*
3. *«Dar maktab-e o'stod» («Ustoz maktabida») nomli broshyura haqida so'zlab bering.*
4. *Said Nafisiy kim?*

### **Adabiyotlar**

1. Л.С. Пейсиков. Лексикология..., с. 138-148.
2. А. Исмаилов. К вопросу об упорядочении и унификации персидской орфографии. Сб. Вопросы востоковедения (языкознание). № 600, Т., 1979, с. 40-47.
3. Н.А.Мухамедова. Рецензия на книгу Паврвиза Нателя Ханлари «Языкознание и персидский язык» Сб. Востоковедение, языкознание, вып. 480, 1975, Т., с. 170-177.
4. Н.А.Мухамедова. Социолингвистические вопросы в трудах иранских лингвистов (40-70 гг.). Сб. Восточное языкознание. Т., 1987, с. 108-114.

## 9 - MA'RUZA

### ERON OLIMLARINING LINGVISTIK ASARLARI

**Darsning maqsadi:** Eron olimlari va ularning lingvistik asarlari haqida nazariy-ilmiy tasavvurni shakllantirish.

**Tayanch soʻz va iboralar:**

- Moʻfrad va jaʼm.
- Maʼrefe va nakare.
- Sabkshenosi.
- Esm-e masdar – hosel-e masdar.
- Esm-e jens.
- Moʻshtagʼgʼat.
- Afʼal-e jami.
- “Soʻxan”, “Yagʼmo”, “Rohnome-ye ketob”.
- “Mehregon”.
- “Forsi zabon-e agʼim?”

**Maʼruza rejasi:**

1. M.Muin,P.N.Xonlariy va Bahorning ishlari.
2. M.R.Boteniyning ishlari.
3. 60-70-80- yillardagi boshqa tilshunoslarning ishlari.

### **MUHAMMAD MUIN (1913-1971)**

U Eronning yirik olimlaridan biri boʻlib, oʻzidan keyin Eron tillari hamda qadimgi va mumtoz adabiyoti tarihi, afsonalar va falsafaga oid kitoblar qoldirgan. Muhammad Muin – “ Farhang-e forsi” nomli 6 tomli, asosiy izohli-enciklopedik lugʼat tuzuvchisi,shuningdek,yana koʻplab lugʼatlar muharriri va chop etuvchisi hisoblanadi.(Bu haqda lugʼatshunoslik boʻlimida soʻz yuritilgan.)

Lugʼatshunoslikga oid ishlaridan tashqari Muhammad Muin oʻzining bevaqt oʻlimiga qadar nashr etib ulgurgan 4 jildan iborat “Tarx-e dastur-e zabon-e forsi” (“Fors tiliga tavsif”) kitobiga ham koʻp eʼtibor qaratgan. Bu kitoblar “Ezofe”(“Izofa”),”Esm-e masdar – hosel-e masdar”(“Feʼliy ismlar – yasama ismlar”), “Moʻfrad va

ja'm”("Birlik va ko'plik"), "Esm-e jens va ma'refe va nakare"("Predmet nomlari.Aniq va noaniq ism") deb nomlanardi.

Muallif yana shunday bir qator fors grammatikasining turli bo'limlarining batafsil izohlarini o'z ichiga olgan risolalarni yaratishni o'ziga maqsad qilib qo'ygandi, chunki bu kitoblar boshqa tilshunoslar bilan hamkorlikda fors tilining to'liq ilmiy grammatikasini tuzishda qo'l kelardi.

### ***MUHAMMAD TAGI MALIK USH-SHUARO BAHOR*** **(1886-1951)**

U Eronlik mashhur olim, filolog, shoir. Bahor katta miqdordagi she'riy asarlar va ko'plab ilmiy-tadqiqiy ishlar egasidir. Uning 3 tomli "Sabkshenosi-ye torix-e tatavvur-e nasr-e forsi"(Tehron, 1937) ("Eron nasrining uslubiyati yoki rivojlanish tarixi")(1958) nomli yirik asari Eron tilshunosligi va adabiyotshunosligi uchun muhim ahamiyatga ega. Bu monografiya X asrdan XX asrgacha bo'lgan fors nasri rivojlanishining ulkan davrini o'z ichiga oladi.

Bahor nasr tarixini sulolaviy davr asosida, uslubiyatga oid ko'plab ma'lumotlarni kiritdi, hamda ko'rib chiqdi. Haligacha Eronda bu tadqiqotga teng keladigani yo'qahramon va haligacha Eron filologiyasida muhim ahamiyatga ega. Bahor tadqiqotlarining ob'yekti bo'lib nafaqat badiiy balki ilmiy fors nasri ham xizmat qildi. O'rganib chiqish nuqtai nazaridan esa adabiyotshunoslikka oid qarashlardan ko'ra ko'proq tilga oid qarashlar ilgari surildi. Shunday qilib Bahor o'zining kitobida diqqatini yaratgan asarlarining leksik xususiyatlariga, sintaksisga, turli davrlardagi til me'yorlariga qaratgan. Bahorning asosiy ishida fors nasrining tarixiy rivojlanishidagi til xususiyatlari xarakteristikasi birinchi o'rinni egalladi.

Shu o'rinda X.Xotebining XII-XIII asr nasriga bag'ishlangan "Ilmiy nasrning rivojlanish tarihi"(Tehron, 1965) kitobi ham qiziqarlidir.

## *P.N.XONLARIY*

Uning tilshunoslik bo'yicha yozgan asarlari umumiy va fors tilshunosligida muhim ahamiyat kasb etadi. Uning "Tarix-e zabon-e forsi" nomli 3 jildli asari 70-yillarda ilk marotaba nashr qilingan bo'lib, shu kungacha bir necha marta qayta nashrdan chiqqan.

P.N.Xonlariyning monografiyasining tarkibiy tuzilishi aniq nomi(yoki mundariyasi) bo'yicha bo'lmasa ham, shuni aytish mumkinki 1-jild asosan muallifning Eron tillari fonetikasi tarihi haqidagi shuningdek boshqa savollarga bo'lgan fikr-mulohazalarini o'z ichiga oladi, 2-jildda esa muallif yana Eroniy tillar fonetikasiga murojaat qiladi, shuningdek, zamonaviy Eron tillari va O'rta davr Eron tillarida qo'llanilgan grafik usullarni ko'rib chiqadi, lekin bu jildning asosiy qismi fors tilida fe'lning tarkibiy-grammatik xususiyatlaridir; 3-jild – bu butun ishning shakl va mohiyati bo'yicha birmuncha aniq qismidir, ya'ni fe'lning tuslanadigan shakllari (nisbat, mayl, fe'l zamonlari va boshqalar) haqida.

Avvalgi ma'ruzada aytilganidek, P.N.Xonlariy fors tilining taqdiri va holatiga juda katta ahamiyat bergan va ularni "Zabonshenosi va zabon-e forsi" ("Tilshunoslik va fors tili", Teh, 1968) nomli to'lamida chop etilgan maqolalarida aytib o'tgan.

70-yillarning oxirida Eron davriy matbuotida fors adabiy tilining ahvoli va rivojiga katta ahamiyat berila boshlandi. Bu 70-yilning oktyabrida Eron madaniyat va san'at vazirligi tomonidan uyushtirilgan fors tilining muammolari bo'yicha o'tkazilgan konferenciya so'zga chiqqan rasmiy shaxslarning chiqishlari bilan bog'liq edi.

Matbuotda turli ma'ruzalar bosib chiqarildi. Masalan, 1970-yildagi "Rohnome-ye ketob" jurnalining 8-10-sonlaridagi Shoiri Rosexning "Fors tili va sanoatning rivojlanishi", M. Tabotaboiyning "Forsiy nutq va uning rivojlanishi" nomli maqolalari, bundan tashqari 1970-yildagi "Yag'mo" jurnalining 9-sonidagi M. Tabotaboiyning "Fors tilini asrash", hamda 1970-yildagi "So'xan" jurnalining 7-sonidagi P.N.Xonlariyning "Fors tili uchun nima qilish kerak?" nomli maqolalari shular jumlasidandir.

Yuqorida aytilgan barcha maqolalarning mualliflari "Fors tilini unga bo'ladigan zararli ta'sirlardan muhofaza qilish" zarurligi haqida



turli fikrlarni bildirganlar. Shoira.Rosex Eronda o'zgarayotgan vaziyat ta'sirida fors adabiy tilining o'zgarishlarini yetarli darajada har tomonlama o'rganib chiqdi va bu jarayonni ilmiy yo'nalishga kiritishni taklif etdi.

P.N.Xonlariyning maqolasida fors adabiy tiliga grammatika'arbiy tillardan so'z va atamalarning kirib kelishi – muqarrar va tabiiydir deyilgan. U faqat ikki taklifni kiritgan:

1) boshqa tilga xos atamalarning qanday fonetik va orfografik “bezak”ka ega bo'lishi kerakligini aniqlab olish;

2) “havaskor”larning so'z yasashi judayam keng quloch yoyib, chigallik keltirib chiqarishi natijasida adabiyotdagi barcha variantlarni o'rganib chiqishga safarbar qiladigan ilmiy tashkilot tuzish.

O'sha paytdagi Eronlik tilshunos va adabiyotshunoslarni, shuningdek, fors va arab tillarining o'zaro munosabati haqidagi savol qiziqtiradi. (Bu savol hozirgi kunda ham juda muhimligicha qolgan.) 1971-yilda P.N.Xonlariy “Fors tilining arab tiliga qarshi “kurashi” nomli maqolasi chop etildi (So'xan, 1971, №11, 981-986-betlar). U bu maqolada arab tilining xalq tomonidan kam ishlatilishini va “Samak-e ayyor”(Dovyurak Samak) va boshqa shu kabi xalq asarlarida esa arabizmlarning foizi kamligini ko'rsatdi.

“So'xan” jurnalida (1967, №8) Xonlariy adabiyotshunoslikka oid maqolalar bilan ham chiqish qildi. Masalan, adabiyotshunoslarda katta qiziqish uyg'otgan “Adabiy tanqidning asosiy qonun-qoidalari” maqolasidir.(*Qarang: Д.С. Комиссаров. О современном иранском литературоведении. – М.,1980, 49-50-betlar.*)

### ***MUHAMMAD RIZO BOTENIY***

U Eronning ko'zga ko'ringan tilshunoslaridan bo'lib, uning faoliyati asosan 70-80-yillarda sermahsul bo'lgan. Uning ishlari nafaqat fors tiliga balki umumiy tilshunoslikka oid bo'lib, ular:

1) “Zabon va tafakko'r” (“Til va fikrlash”, Tehron,1975);

2) “Negoh-e toze be dastur-e zabon” (“Til grammatikasiga yangicha nazar”, Tehron,1976);

3) “Masoil-e zabonshenosi-ye no'uvin” (“Yangi tilshunoslik masalalari”, Tehron,1976);

4) “Chahor go‘ftor dar bore-ye zabon” (“Til haqida to‘rt muhokama”, Tehron,1977);

5) “To‘usif-e soxtemon-e dasturi-ye zabon-e forsi” (“Fors tili Grammatik qurilishiga tavsif”, Tehron,1978) va boshqalar.

Boteniyning monografiyalari odatda zamonaviy tilshunoslik, shu jumladan fors tilining yanada muhim bo‘lgan nazariy muammolarini o‘z ichiga oladi. Shunday qilib “Til va tafakkur” asarida so‘z yasalishi va nusxa ko‘chirish(o‘zlashtirish) bo‘yicha savollar o‘z o‘rnini topgan. Unda nusxa ko‘chirish butunlay o‘zlashtirish doirasiga taalluqlidir. 70-yillarda tilshunoslar orasida tilning leksik maqolalar’nosini to‘ldiruvchi vositalar orasida nusxa ko‘chirishning o‘rni haqida bahs va munozaralar bo‘lib o‘tdi va Boteniy bu bahslarda muayyan o‘rinni egalladi. U semantic so‘z ko‘chishi hosil bo‘lganda boshqa tilga xos so‘zning semantikasiga muvofiq o‘xshashlik bilan forsiy so‘zning semantik hajmining kengayishi hamda so‘z yasalishi va frazeologik so‘z ko‘chishida – so‘z qisimlarining yoki frazeologik so‘z birikmalarning tarkibiy qismiga qarab tarjimai ro‘y beradi deb ta’kidlaydi. Boteniy: “Til – dastlabki elementlarga ega, shakli va qurilishi – induktor tildan olinadi”, -deydi.

M.R.Boteniyning boshqa ishlari ham amaliy va nazariy jihatdan boy maqolalar’lumotlarni olishimizga yordam beradi. Uning “Forsi zabon-e ag‘im?” (“Fors tili – bepusht?”) nomi ostidagi “Odine”(1985, №33) jurnalidagi maqolasi tilshunoslarda katta qiziqish uyg‘otdi. Unda hozirgi fors tilidagi oddiy va murakkab fe’llarning o‘zaro munosabati, kam mahsul bo‘lgan ko‘plab oddiy fe’llarni qayta jonlantirish zarurligi, bir tomondan, ot yoki sifatdan yasalgan fe’l jarayonini kuchaytirish, boshqa tomondan bu bilan fors ilmiy tili uchun kerak bo‘lgan fe’ldan yasalgan yangi va yangi hosilalarni yaratish mumkinligi haqida so‘z boradi.

Hozirgi fors tilidan oddiy fe’llarning murakkab fe’llar tomonida siqib chiqarilishi muammosi nafaqat Boteniyni, balki oxirgi o‘n yillikning boshqa tilshunoslarini ham o‘ziga jalb etdi. Bular: P.N.Xonlariy, M.R.Adelya, I.Kalbossiy, K.Xaliliy va boshqalar bo‘lib, ular yuzaga kelgan vaziyatni to‘grammatika’rilashning turli yechimlarini taklif qilganlar. Masalan: K.Xaliliy o‘zining “Masodir-e forsi”(“Fors masdarlari”, Tehron,1993)nomli monografiyasida o‘zi tomonidan ishlab chiqilgan sxema yordamida, oddiy fe’llarning so‘z

yasashga bo‘lgan keng imkoniyatlarini yaqqol namoyon qiladi. I.Kalbossiy ham “Soxt-e eshteg‘og‘i-ye voje dar forsi-ye emruz”(“Hozirgi fors tilida yasama so‘zlar tuzish”, Tehron, 1992) kitobida huddi shu fikr tarafdori ekanligini ko‘rsatadi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. *Muhammad Muinning asosiy lingvistik ishlarini aytib bering.*
2. *Malik ush-Sho‘aro Bahorning tilshunoslik bo‘yicha eng katta asari qachon yozilgan va qanday tadqiqot sanaladi?*
3. *Parviz Notel Xonlariyning qaysi asari 3 jildda nashr qilingan?*
4. *Mazkur asarda qanday masalalar tahlil qilinadi?*
5. *P.-N. Xonlariyning fors tilida arabcha o‘zlashmalarga munosabatini yoriting.*
6. *XIX asrning 60-70-yillari lingvistik maqolalar qaysi jurnallarda nashr qilingan?*
7. *Umumiy tilshunoslikka oid asarlar qaysi tilshunosga tegishli?*
8. *«Farsi zabon-e aqim?» («Fors tili – bepusht?») maqolasida mullif nimani nazarda tutgan?*

### **Mustaqil ta’lim uchun savollar:**

1. *1970-yil oktyabrda bo‘lib o‘tgan konferensiyada fors tilining qanday masalalalari ko‘rib chiqildi?*
2. *“Uslubshunoslik” monografiyasi qaysi olimning qalamiga mansub?*
3. *“Fors tili tarixi”ning muallifi kim?*
4. *P.N.Xonlariyning maqolalari asosan qaysi jurnallarda chop etilgan?*

### **Adabiyotlar**

1. Muhammad Muin. “Ezofe”. Teh,1962.
2. Muhammad Muin. “Esm-e jens va ma’refe va nakare”. Teh,1962.
3. Muhammad Muin. “Esm-e masdar – hosile masdar”. Teh,1962.
4. Muhammad Muin. “Ja’monografiya va mo‘frad”. Teh,1963.

5. M.Muin,T.Bahor. “Sabkshenosi”. Teh,1957.
6. M.Muin, R.Boteni. “Zabon va tafakko‘rivojlanish”. Teh,1975.
7. P.N.Xonlari. “Tarixe zabone forsi”. Teh,1975.
8. K.Xalili. “Masodir-e forsi”. Teh,1993.

## 10 - MA'RUZA

### ERON LINGVISTLARINING TILSHUNOSLIKNING TURLI YO'NALISHLARIDAGI ILMYI FAOLIYATI. TARJIMALAR

**Darsning maqsadi:** Eron lingvistlarining tilshunoslikning turli yo'nalishlaridagi ilmiy faoliyatlari bilan tanishtirish va tarjima ishlari haqida nazariy qarashlarni tahlil qilishni o'rgatish.

**Tayanch so'z va iboralar:**

- ✓ Farhangeston-e zabon va adab-e forsi.
- ✓ Qadimgi eroniy tillar.
- ✓ O'rta eroniy tillar.
- ✓ Eron dialektologiyasi.
- ✓ Ovoshenosi.
- ✓ Vojeho-ye no'v.

**Ma'ruza rejasi:**

1. Eron tilshunoslarining ingliz, fransuz, nemis va rus tillaridan fors tiliga tarjimalari.
2. Eron tilshunoslarining umumiy tilshunoslik bo'yicha ishlari.
3. Fonetika, leksikologiya, dialektologiya bo'yicha qilingan ishlar.
4. Qadimiy tillar bo'yicha qilingan ishlar.
5. Eron olimlarining olib borgan ishlari.

XX asr Eron tilshunoslik ilmini rivojlanishiga Yevropa tilshunosligining ta'siri katta bo'ldi va bu sohaning rivoji G'arbiy Yevropa va Rossiya tilshunoslarining umumiy tilshunoslikda qilgan ishlarining ko'plab fors tiliga tarjimalarida o'z aksini topdi. Shuni qayd etib o'tish kerakki, bu tarjimalar mashhur eron olimlari tomonidan amalga oshirilgan va shuning uchun katta ishonchga sazovor bo'lgan.

M.R.Boteniy R.Xollning "Til va tilshunoslik" (1985), M.Biorishning "Yangi tilshunoslik" (1977) asarlarini ingliz tilidan tarjima qildi va chop etdi. Shuningdek, J.Achesonning "Umumiy tilshunoslik" asarini Huseyn Vosug'i (1985), "Til psixologiyasi" asarini Abdul Xalil Hojatiy (1986), A.R.Lurye "Bola tili va xotirasi" –

Behruz, J. Vatermanning “Lingvistika rivoji” – F.Bodrei (1987), K.M.Horning “Til klassifikatsiyasi” - Abu Qosim Suxeyli tarjima qildilar.

1994-yil Tehronda D.Makkenzining “Pahlaviy tilining qisqa lug‘ati” Maxshid Mifaxroyi tomonidan fors tiliga tarjimasi nashr qilindi (“Osiyo va Afrika bugun” jurnali, 1996-yil, №7).

Rus tilidan forschaga tarjimalar:

V.Kondratyevning “Til va tilshunoslik ” kitobi – M.R.Boteniy (1980),

I.M.Oranskiy “Eron filologiyasiga kirish”(1960, I nashr) – Karim Kashovarz (1979),

Ye.E.Bertelsning “Eron-tojik adabiyoti tarixi” – Sirius Izadi (1995).

(*Bu haqda qarang: “Osiyo va Afrika bugun” jurnali, 1996-yil, №7.*)

1995-yil Tehronning “Al-xudo” nashriyoti tomonidan ma’lumotnoma chop qilindi va bu ma’lumotnoma Qozog‘iston oliy o‘quv yurtlarining sharq fakulteti o‘qituvchi va talabalariga mo‘ljallangan. Uni tayyorlashda QozDUNing o‘qituvchilari ishtirok etishdi. Ma’lumotnoma o‘z ichiga eroniy tillar guruhi, fors tilining rivojlanish bosqichlari haqidagi ma’lumotlarni oladi.

Farhangeston raisi Xaddod Odil “Chet so‘zlarining kirib kelishi nafaqat fors tilining chiroyi va jilosini yo‘q qiladi, balki fors tilida so‘zlashuvchi insonlar o‘rtasida o‘zaro tushunishida qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi” deb aytadi. Farhangeston mavjud vaziyatni to‘g‘rilash uchun kerakli chora-tadbirlarni ko‘radi va 1996-yilga qadar chet el so‘zlarining 50 ta forsha ekvivalentini taqdim etadi .

Farhangeston tavsiyasiga binoan gazetalarda chet so‘zlarni forsha ekvivalentiga almashtirish borasidagi masalalar keltiriladigan maqolalar chop qilina boshlandi. Bu kabi maqolalar “Jomhuri-ye eslomi “, “Resolat”, “Keyhon”, “Salom” gazetalarida nashr qilinadi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. *Evropa olimlarining fors tiliga tarjima qilingan lingvistik asarlarini sanab bering. Ular kimlar tomonidan tarjima qilingan?*

2. *I.M. Oranskiy va E.E. Bertelsning asarlari fors tiliga kim tomonidan tarjima qilingan?*

3. *Eron olimlaridan kim asosan o'rta fors (pahlaviy) tili tadqiqi bilan shug'ullangan?*

4. *B. G'arib tomonidan qaysi o'rta eroniy til tadqiq qilingan?*

5. *Eronning mahalliy lahjalarini o'rgangan eronlik tilshunoslar nomini ayting.*

6. *Qaysi eron tilshunoslari umumiy va fors tili fonetikasi bo'yicha ishlarni amalga oshirgan?*

### **Mustaqil ta'lim uchun savollar:**

1. *Umumiy tilshunoslik bo'yicha ishlar mualliflarini ayting.*

2. *Fors tili leksikologiyasi masalalari kimlar tomonidan o'rganilgan?*

3. *Toshkentda va sobiq Ittifoqda fors tili va adabiyoti masalalari bilan shug'ullangan eronlik olimlar haqida so'zlab bering.*

4. *Mansur Shokiy kim va uning fors tilshunosligi bo'yicha qanday ishlarini bilasiz?*

### **Adabiyotlar**

1. Л.С. Пейсиков. Лексикология современного персидского языка. М., 1975.

2. Основы иранского языкознания. Древнеиранские языки. М., 1979; Среднеиранские языки. М., 1981; Новоиранские языки: западная группа, прикаспийские языки. М., 1982.

3. И.М. Оранский. Введение в иранскую филологию. М., 1988.

## **Eron tilshunosligi fanidan tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Островский Б.Я. Вопросы грамматической семантики глагола языка дари. - М.: Гуманитарий, 2004. – 380 с.
2. Островский Б.Я. Модальные глаголы языка дари. - М.: Ключ-С, 2008. – 196 с.
3. Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. – Изд-во Московского университета, 1975.
4. Рубинчик Ю.А. Лексикография персидского языка. – М., 1991.
5. Siyoqi D. Farhangho-ye forsi be forsi va forsi be zabonho-yi digar va farhangho-ye mo‘uzui va guyeshho-ye mahalli va farhangguneho» - Tehron, 1997.
6. Капранов В.А. «Луғати Фурс» Асади Туси и его место в истории таджикской (фарси) лексикографии. – Душанбе, 1964.
7. G.-X. Sadri Afshor, N.Но‘kmi, N.Но‘kmi. Farhang-e forsi-ye emruz. - Tehron, 1997.
8. Баевский С.И. Арабско-персидские и персидско-тюркские словари и их значение для иранской филологии//Сб. «Иранская филология». -Ташкент, 1966.
9. Мухамедова Н.А. Вклад индийских учёных в персоязычную лексикографию и грамматику.
10. Мухамедова Н.А. Теоретическая грамматика персидского языка. - Т., 1994.
11. Мухамедова Н.А. Классификация частей речи персидского языка в трудах иранских лингвистов // Сб. «Восточное языкознание». - Ташкент, 1990.
12. Мухамедова Н.А. Социолингвистические вопросы в трудах иранских лингвистов (40-70 гг.)//Сб. Восточное языкознание. Т., 1987.
13. Исмаилов А. К вопросу об упорядочении и унификации персидской орфографии// Сб. Вопросы востоковедения (языкознание). № 600, Т., 1979, с. 40-47.
14. Основы иранского языкознания. Древнеиранские языки. М., 1979; Среднеиранские языки. М.,1981; Новоиранские языки: западная группа, прикаспийские языки. М., 1982.



15. Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. – М.: Восточная литература РАН, 2001. – 600 с.

16. Сотова О.М. Основные структурно-семантические особенности терминообразования в современном персидском языке: Дис. ...к.ф.н. – М., 2008.

17. Элтазаров Ж. Ўзбек тилида сўз туркумларининг ўзаро алоқаси ва кўчиши: Фил.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Самарқанд, 2006. – 309.

18. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – 168 б.

19. Ҳожиёв А. Ўзбек тилида равиш туркуми масаласи // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. – Тошкент, 2007. – Б.8-12.

20. Ҳожиёв А. Тил бирликларини таснифлаш масаласи // Тилшуносликнинг долзарб муаммолари. – Тошкент, 2008. – № 4. – Б. 21-26.

21. Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. – Т.: Фан, 2010. – 256 б.

22. Алимова Х. Форс, дарий, тожик тилларининг шаклланиш босқичлари: умумийлик ва фарқлар (*фонетик таҳлил*) // Шарқшунослик. – Т.: ТошДШИ, 2008. – № 1-2. – Б. 20-27.

23. Алимова Х. Вопросы классификации сложных слов в иранском языкознании // Восточные языки и культуры: Материалы III Международной научной конференции 25-26 ноября 2010 года. – Москва: Российский государственный гуманитарный университет, 2010. – С.13-16.

24. Boqeriy M. Tilshunoslikka kirish (fors tilida). - Tabriz, 1988.

25. A. Xayompur. Dastur-e zaban-e farsi. - Tehron, 1974.

26. M. Mo'in. Izofe. - Tehron, 1962.

27. M. Mo'in. Ism-e jins va ma'refe va nakare. - Tehron, 1962.

28. M. Mo'in. Ism-e masdar - hosel-e masdar. - Tehron, 1962.

29. M. Mo'in. Jam' va mo'fred. - Tehron, 1963.

30. G'arib A., Bahor M.-Sh., Foruzanfar B., Yosemi R., Humoyi J. Dastur-e zaban-e forsi. - Tehron, 1949-50.

31. Moin M. Tarh-e dastur-e zaban-e forsi. - Tehron, 1972.

32. Humoyun-Farrux A. Dastur-e jome'-e zaban-e forsi. - Tehron, 1957.
33. P.-N. Xonlariy. Tarix-e zaban-e forsi. - Tehron, 1973.
34. M.-T. Bahor. Sabkshenosi. - Tehron, 1957.
35. M.-R. Boteniy. Zaban va tafakkur. - Tehron, 1975.
36. K. Xaliliy. Masodir-e forsi. - Tehron, 1993.

37. ابوالحسن نجفی. مبانی زبانشناسی. - تهران، ۱۳۷۴. - ۱۶۸ ص.
38. پرویز ناتل خانلری. دستور زبان فارسی. - تهران، ۱۳۸۶. - ۳۶۷ ص.
39. پنج استاد. دستور زبان فارسی. - تهران، ۱۳۷۳. - ۲۷۴ ص.
40. حسن انزلی. دستور زبان فارسی. - تهران، ۱۳۷۰. - ۴۲۴ ص.
41. حسین اجمی. دستور زبان فارسی. - تهران، ۱۳۷۳. - ۱۴۲ ص.
42. حسین عمید. فرهنگ عمید (دستور زبان فارسی). - تهران، ۱۳۷۵. - ۳۵ ص.
- ۵۱-
43. دکتر حسن انوری، دکتر حسن احمدی گیوی. دستور زبان فارسی (ویرایش دوم). - تهران، ۱۳۷۴. - ۲۵۵ ص.
44. دکتر خیامپور. دستور زبان فارسی. - تهران، ۱۳۵۲. - ۱۹۱ ص.
45. دکتر تقی واهدیان کامیار. دستور زبان فارسی. - تهران، ۱۳۸۶. - ۱۳۰ ص.
46. دکتر محسن ابوالقاسمی. دستور تاریخ زبان فارسی. - تهران، ۱۳۸۵. - ۴۸۶ ص.
47. دکتر مهری باقری. مقدمات زبانشناسی. - تهران، ۱۳۷۰. - ۲۶۴ ص.
48. نجفعلی میرزانی. فرهنگ اصطلاحات دستور زبان فارسی. - تهران، ۱۳۷۴. - ۲۳۲ ص.
49. زهرا زندی مقدم. قید، متمم، قیدواره. // نامه فرهنگستان. - تهران، ۱۳۷۷. - ۱۴۸-۱۷۲ ص.

## LINGVISTIK TERMINLAR LUG‘ATI

		آ
	مصوت مركب: qar	آواگروه
	kelasi zamon	آينده
		ا
	so‘z turkumlari	انواع كلمات
<b>мн. от جزو или جزء</b>		<b>اجزاء [ajzā]</b>
члены предложения	جزو yoki ning ko‘pligi	* ~ جمله
префикс	gap bo‘laklari	* ~ پيشين
Аббревиатура	old ko‘makchilar	اختصار، (علامت) اختصاری
<b>имя</b>		<b>اسم [esm]</b>
указательное местоимения	ot, ism	* ~ اشاره
имя орудия	ko‘rsatish olmoshi	* ~ آلت
имя существительное	-----	* ~ ذات
имя прилагательное	ot	* ~ صفت
имя места	sifat	* ~ مكان
отглагольное имя	-----	* ~ مصدر
имя отвлечённое, абстрактное	harakat nomi	* ~ معنى
имя с уменьшительным суффиксом	mavhum ot	* ~ مصغر
-----	kichraytirish suffiksini olgan ot	* ~ صوت
имя в единственном числе	-----	* ~ مفرد
определяемое	birlik shaklidagi ism (ot)	* ~ موصوم
имя существительное неопределённое, имя существительное с	aniqlanmish	* ~ نکره

показателем неопределённости «и»		
имя [существительное] определённое, имя в определённом состоянии	noaniq ot, “i” noaniqlik ko‘rsatkichini olgan ism	* ~ معرفه
имя нарицательное	aniq ot, aniq holatdagi ot	* ~ عام
имя собственное	turdosh ot	* ~ خاص
собирательное имя существительное	atoqli ot	* ~ جمع
-----	-----	* ~ جمادات
причастие страдательного залога	-----	* ~ مفعول
	majhul nisbat sifatdoshi	* ~ مشتق
предикативность, сказуемость		اسناد
		اصل
<b>модальный</b>	qar: بن	<b>التزامي [eltezāmi]</b>
см: فعل	<b>modal</b>	* فعل ~
см: ماضى	qar: فعل	* ماضى ~
см: مضارع	qar: ماضى	* مضارع ~
см: وجه	qar: مضارع	* وجه ~
<b>повелительное наклонение глагола; императив</b>	qar: وجه	<b>امر (* ~ حاضر)</b> <b>[mro]</b>
	<b>fe’lning buyruq mayli; buyruq mayli</b>	<b>ب</b>
<b>Приложения</b>		<b>بدل</b>
<b>основа</b>		<b>بن [bon]</b>
	<b>negiz</b>	* ~ فعل
основа настоящего времени	fe’l negizi	* ~ مضارع

основа прошедшего времени	hozirgi zamon fe'l negizi	* ~ ماضى
<b>приложение</b> см: نقش	o'tgan zamon fe'l negizi	بدل [badal]
	izohlovchi qar: نقش	نقش بدلى
см: ساده		بسيط [basit]
	qar: ساده	پ
		پايه فعل
см: پسوند	qar: بن	پساوند [pasāvand]
<b>суффикс</b>	qar: پسوند	پسوند [pasvand]
суффикс причастия прошедшего времени	ort qo'shimcha	* ~ مفعولى
<b>Префикс</b>	o'tgan zamon sifatdoshi suffiksi	پيشوند [pishvand]
	old qo'shimcha	ت
		تاويل – تبديل جمله (ها) را به ژرف ساخت تميز
		ج
<b>Первичный, непроизводный; простой, неразложимый</b>		جامد
		جزء پيشين فعل
<b>неодушевленный предмет</b>	fe'lning old qo'shimchalari jonsiz predmet	جماد
<b>множественное число</b>		جمع
двойное мн. число	ko'plik	* ~ جمع
правильное мн. число		* ~ صحيح
формы арабского мн. Числа	to'g'ri ko'plik	~ هاى عربى
неправильное мн.	arabcha ko'plik shakllari	* ~ مجهول

число		
разбитое, ломанные Число	МН. noto‘g‘ri ko‘plik shakllari	* ~ مکسر
<b>предложения; фраза</b>	siniq ko‘plik	جمله
سم: حرف صوت	<b>jumla, gap; ibora</b>	* ~ جمله (صوت)
сложное предложения	qar: حرف صوت	* ~ مرکب
	qo‘shma gap	ح
		حال
<b>состояние, падеж</b>	<b>hozirgi zamon</b>	حالت
а) изафетное состояние имени; имя в изафетной конструкции б) родительный падеж	<b>holat, kelishik</b>	* ~ اضافہ (اضافی)
а) имя в функции подлежащего; б) субъектный или именительный падеж; в) субъектное сос- тояние (имени), использование (имени) в роли субъекта	а) ismning izofiy holati; изофа конструсиyasidagi ism б) qaratqich kelishigi	* ~ فاعل (فاعلی، فاعلیت)
а) имя в функции дополнения б) объектный падеж; косвенный падеж	а) ega vazifasidagi ism; б) bosh kelishik; в) (ismning) sub‘ekt holati, (ismning) sub‘ekt rolida ishlatilishi	* ~ مفعول (متمم، مفعولی، مفعولیت)
звательная форма имени	а) to‘ldiruvchi vazifasidagi ism б)-----kelishik; ----	* ~ ندا

	----- kel.	
степень сравнения	ismning murojaat shakli	* ~ درجه
степень сравнения имени прилагательного	qiyosiy daraja	* ~ صفت
<b>частица;</b> <b>служебное слово,</b> <b>звук</b>	sifatning qiyosiy darajasi	<b>حرف</b>
а) согласный звук; б) глухой согласный	<b>yuklama;</b> <b>yordamchi</b> <b>so‘z;</b> <b>tovush</b>	* ~ بی صدا
утвердительная частица	a) undosh tovush; b) jarangsiz tovush	* ~ اثبات
предлог исключения	ta’kid yuklamasi	* ~ استثناء
вопросительная частица	istisno old yuklamasi	* ~ استفهام (استفهامی)
указательное местоимение	so‘roq yuklamasi	* ~ اشاره
Предлог	ko‘rsatish olmoshi	* ~ اضافه (پیشین)
Союз	old ko‘makchi	* ~ پیوند (ربط، عطف)
арабский определенный член; артикль	bog‘lovchi	* ~ تعریف
неопределённый артикль	artikl	* ~ تکثیر
разделительный артикль	noaniq artikl	* ~ جدایی
причинный союз	ayiruv bog‘lovchisi	* ~ چرایی (سبب [علت])
приставка	sabab bog‘lovchisi	* ~ زاید
условный союз	old qo‘shimcha, prefiks	* ~ شرط (وابستگی)
а) окончание звательной формы имени; б) звательная частица; в) междометия	shart bog‘lovchisi	* ~ ندا

частица отрицания	a) <u>ot murojaat formasining tugashi</u> ; b) murojaat (undov) yuklamasi; v) undov so‘z, undov	* ~ نهی
соединительный союз	inkor yuklamasi	* ~ وصل
	biriktiruvchi bog‘lovchi	د
		دیگر کس
	qar: سوم شخص	ر
		روساخت
	Surface structure	ریشه
	qar: بن	ز
<b>время</b>		<b>زمان</b>
CM: مستقبل	<b>zamon</b>	* ~ آینده
CM: ماضی	qar: مستقبل	* ~ گذشته
CM: ماضی استمراری	qar: ماضی	* ~ گذشته استمراری
CM: مضارع اخباری	qar: ماضی استمراری	* ~ حال
	qar: مضارع اخباری	ژ
	Deep structure	ژرف ساخت
		س
<b>CM: صیغه</b>		<b>ساخت</b>
	<b>qar: صیغه</b>	* ~ فعلی
	fe’liy yasama so‘zlar	* ~ اسمی و صفتی (وصفی)
	ismiy va sifatiy yasama so‘zlar	ستاک
	qar: بن	ش
<b>междометия</b>		شبه جمله
<b>Лицо</b>	undov so‘z	<b>شخص</b>
	<b>shaxs</b>	اول شخص
		دوم شخص
<b>третье лицо</b>		سوم شخص



	<b>uchinchi shaxs</b>	شناسه
	<b>shaxs-son qo'shimchalari</b>	شونده
	qar: <b>دوم شخص</b>	ص
<b>Согласный</b>		صامت
СМ: <b>مصوت</b>	<b>undosh</b>	صدادار
<b>финитная форма; морфология</b>	qar: <b>مصوت</b>	صرف
склоняться; спрягаться	<b>aniq shakl; morfologiya</b>	* ~ شدن
	turlanmoq; tuslanmoq	* ~ کردن
<b>морфология и синтаксис; грамматика</b>	turlamoq; tuslamoq	صرف و نحو
<b>прилагательное; определение</b>	<b>morfologiya va sintaksis; grammatika</b>	صفت
прилагательное сравнительной степени	в <b>sifat; aniqlovchi</b>	* ~ تفضیلی (قیاسی)
качественное прилагательное	qiyosiy darajadagi sifat	* ~ توصیفی
прилагательное положительной степени	в asliy sifat	* ~ ثابت (عادی، مطلق)
прилагательное функции сказуемого	в oddiy darajadagi sifat	* ~ خبری
прилагательное превосходной степени	в kesim vazifasidagi sifat	* ~ عالی (مبالغه)
причастие действительного залога	orttirma darajadagi sifat	* ~ فاعلی
причастие <u>страдательного</u> залога	hozirgi zamon sifatdoshi	* ~ مفعولی

относительное прилагательное	o'tgan zamon sifatdoshi	* ~ نسبی
см: شبه جمله	nisbiy sifat	صوت
грамматическая форма; грам. категория		صیغه
	grammatik shakl; gramm. kategoriya	ض
местоимения		ضمير
вопросительное местоимения		* ~ استفهام
указательное местоимения		* ~ اشاره
личное местоимения		* ~ شخصی
форма сравнительной степени		* ~ تفضیل
пассивный залог	qiyosiy daraja shakli	* ~ مجهول
мужской род	majhul nisbat	* ~ مذکر
единственное число	muzakkar jins	* ~ مفرد
	birlik	* ~ متصل فاعلی
	qar: شناسه	* ~ متصل مفعولی
		* ~ متصل اضافی
		طبقات دستوری
	qar: انواع کلمات	ع
		عبارت فعلی
	*****	غ
		غایب
	qar: سوم شخص	ف
Активный, действительный, субъект, логическое		فاعل

<b>подлежащее</b>		
причастие действительного залога; имя деятеля; причастие настоящего залога	<b>ega</b> ----- -----	* ~ اسم
<b>Относящийся к субъекту, деятелю</b>	aniq nisbatli sifatdosh; bajaruvchi -----; hozirgi zamon sifadoshi	فاعلى
<b>глагол</b>	<b>sub'ekt (shaxs), bajaruvchiga oid</b>	فعل
глагол <b>в</b> повелительном наклонении	<b>fe'l</b>	* ~ امر
правильный глагол	buyruq maylidagi fe'l	* ~ باقاعده (سالم)
безличны глагол	to'g'ri fe'l	* ~ بى فاعل (غير شخصى)
неправильный глагол	shaxssiz fe'l	* ~ بى قاعده (سماعى)
неспрягаемый гл.; недостаточный гл.	noto'g'ri fe'l	* ~ جامد
гл., образованный от именной основы	tuslanmaydigan fe'l; noqis fe'l	* ~ جعلى (ساختگى)
двухзаложный, переходно-непереходный гл.	ismiy o'zakdan hosil bo'lgan fe'l	* ~ ذووجهين (دووجهى، دوگانه)
глагольная связка	ikki nisbatli, o'timli- o'timsiz fe'l	* ~ عام (ربطى، رابطه)
знаменательный глагол	fe'l-bog'lama	* ~ خاص (تام)
неспрягаемый глагол	mustaqil fe'l, to'la ma'noli fe'l	* ~ غير منصرف
непереходный глагол	tuslanmaydigan fe'l	* ~ لازم (ناگذر)
глагол <b>в</b> прошедшем	o'timsiz fe'l	* ~ ماضى

времени		
переходный глагол	o'tgan zamon shaklidagi fe'l	* ~ متعدی (گذرا، معلوم)
глагол в форме страдательного залога	o'timli fe'l	* ~ مجهول
гл. в форме настоящего времени; гл. в форме аориста	majhul nisbatdagi fe'l	* ~ مضارع
глагол в форме будущего времени	hoz. zam. shaklidagi f.; aorist shaklidagi f	* ~ مستقبل
служебный глагол, вспомогательный глагол	aniq kel. zam. shaklidagi fe'l	* ~ معین
префиксальный глагол	yordamchi fe'l, ko'makchi fe'l	* ~ مقید
спрягаемый глагол	prefiksli fe'l	* ~ منصرف
отрицательная форма глагола	tuslanadigan fe'l	* ~ منفی (نہی، نفی)
недостаточный глагол	fe'lning inkor shakli	* ~ ناقص
причастие прошедшего времени в функции сказуемого	noqis fe'l	* ~ وصفی
	kesim vazifasidagi o'tgan zam. sifatdoshi	* ~ سببی
		* ~ کامل
		* ~ لازم یک شخصه
	bir shaxsli o'timsiz fe'l	* ~ دعا
сложный префиксальный глагол		* ~ پیشوندی مرکب
простой глагол	prefiksli qo'shma fe'l	* ~ ساده
префиксальный	sodda fe'l	* ~ پیشوندی

глагол		
сложный глагол	prefiksli fe'l	* ~ مرکب
	qo'shma fe'l	* ~ ربطی
наречие		قید
наречие времени		* ~ زمان
наречие количества		* ~ کمیت
наречие образа действия		* ~ کیفیت و وصف
наречие места		* ~ مکان
		گ
		گذشته
	qar: ماضی	گذشته ساده
	qar: ماضی مطلق	گروه
	sintagma	گشتاری کردن
	qar: تاویل	گوینده
	qar: اول شخص	م
		ماده
<b>прошедшее время</b>	qar: بن	<b>ماضی</b>
простое прошедшее время	<b>o'tgan zamon, perfekt</b>	* ~ مطلق (ساده)
прошедшее длительное время	o'tgan zamon aniq fe'li	* ~ استمراری
прошедшее- настоящее длительное время	o'tgan zamon davom fe'li	* ~ قریب استمراری
		* ~ نقلی مستمر
прошедшее- настоящее время, перфект	o'tgan zamon natijali davom fe'li	* ~ نقلی (اخباری، قریب)
преждепрошедшее (давнопрошедшее) время	o'tgan zamon natijali fe'li, perfekt	* ~ بعيد
преждепрошедший перфект	uzoq o'tgan zamon fe'li	* ~ ابعد
прошедшее время сослагательного наклонения,	eng uzoq o'tgan zamon fe'li	* ~ التزامی (احتمالی)

прошедшее предположительное время		
	o'tgan zamon shart-istak mayli	* ~ ملموس (ناتمام)
	o'tgan zamon tugallanmagan davom fe'li	* ~ ملموس نقلی
прош. длительное вр. для выражения желания	o't. zam. tugallanmagan natijali davom f.	* ~ تمنایی
прошедшее длительное время для выражения ирреального условия	istakni bildiruvchi o'tgan zamon davom f.	* ~ شرطی
<b>Дополнение</b>	noreal shartlilikni bildiradigan o'tgan zamon davom fe'li	متمم
<b>см: اول شخص</b>	<b>to'ldiruvchi</b>	متکلم
<b>см: دوم شخص</b>	<b>اول شخص: qar</b>	مخاطب
	<b>دوم شخص: qar</b>	مخفف
<b>будущее время; будущее категорическое вр.</b>	<b>اختصار: qar</b>	مستقبل
Аорист, настоящее- будущее время сослагатель-ного наклонения	<b>hozirgi zamon aniq fe'li</b>	مضارع
----- -----	aorist, hozirgi zamon shart istak mayli	* ~ التزامی
нас.-буд. время изъявительного наклонения	----- ---	* ~ ساده
-----	hozirgi zamon davom	* ~ اخباری

-----	mayli	
	-----	* ~ ملموس (نا تمام)
<b>определяемое</b>		<b>مضاف</b>
определение, приимённое дополнение	<b>aniqlanmish</b>	~ اليه
<b>предикат, сказуемое</b>	aniqlovchi	<b>مسند</b>
субъект, подлежащее	<b>predikat, kesim</b>	~ اليه
<b>глагольное дополнение</b>	sub'ekt, ega	<b>مفعول</b>
прямое дополнение	<b>fe'liy to'ldiruvchi</b>	* ~ بيواسطه (مستقيم، صريح، بلاواسطه)
косвенное дополнение	vositasiz to'ldiruvchi	* ~ باواسطه (غير مستقيم، غير صريح، بواسطه)
<b>положение в качестве дополнения</b>	vositali to'ldiruvchi	<b>مفعوليت</b>
<b>относящийся к дополнению</b>	<b>to'ldiruvchi sifatidagi holat</b>	<b>مفعولى</b>
<b>дериваты, производные слова</b>	<b>to'ldiruvchiga tegishli</b>	<b>مشتقات</b>
производные слова	<b>hosila, yasama so'zlar</b>	* ~ فعلى
<b>Масдар, инфинитив, неопределённое наклонение; отглагольное имя</b>	yasama fe'llar	<b>مصدر</b>
усечённый инфинитив	<b>masdar, infinitiv, noaniq mayl; harakat nomi</b>	* ~ تخفيفى
инфинитив глагола образованного от	qisqargan infinitiv	* ~ جعلى

«неправильной основы»		
отглагольное имя с суффиксом اش	noto'g'ri negizdan yasalgan f. infinitivi	* ~ شينى
инфинитив сложного глагола; сложное гл. имя	ash qo'shimchasini olgan harakat nomi	* ~ مرکب
отглагольное имя с окончанием ن	qo'shma fe'lning infinitivi; -----	* ~ نونى
гласный	ن ga tugagan harakat nomi	مصوت
дифтонг	unli	مصوت مرکب
связанный союзом		معطوف
		مفرد
	birlik	مقوله‌های هفتگانه (اسم، فعل، ضمير، صفت، قيد، حرف، شبه جمله)
		منادا
	murojaat so'zlari	ن
запретительно- отрицательный императив; отрицание		نهى
	ta'qiq-inkor buyruq mayli; bo'lishsizlik, inkor	نقش
		* ~ تمیزی
	belgilovchi vazifa	* ~ نهادی
		* ~ منادایی
	undalma	نهاد
	ega	نهاده
		و
определительный		وصفی
	aniqlovchi, aniqlovchi bo'lib keladigan	وابسته
фонема	tobe so'z	واج



	fonema	واژک
	fon	واژه
مصوت: SM	so‘z	واکه
	مصوت: qar	واکه مرکب
<b>наклонение; модальность</b>	مصوت مرکب: qar	وجه
сослагательное наклонение	<b>nisbat, mayl; modallik</b>	* ~ التزامی
повелительное наклонение	shart-istak mayli	* ~ امری
изъявительное наклонение	buyruq mayli	* ~ خبری
условное наклонение		* ~ شرطی
		ه
название суффикса “h” (ه) образующего причастие прошедшего времени		ها * ~ مفعولی
صامت: SM	o‘tgan zamon sifatdoshi yasovchi qo‘shimchanning nomi “h” (ه)	همخوان
	صامت: qar	همکرد

## MUNDARIJA

Kirish .....	3
Fors lug'atshunosligi (leksikografiyasi) .....	4
Hozirgi zamon fors tili lug'atlari .....	11
Eronda tarjima ( <i>ikki va uch tilli</i> ) lug'atlarining yaratilishi.....	14
Fors tili grammatikasining yaratilish tarixi ( <i>dasturnevisi</i> ) .....	18
Eronda yaratilgan grammatik asarlar .....	22
Fors grammatikasining ayrim xususiyatlari.....	26
Fors tili nazariyasi va umumiy eron tilshunosligi bo'yicha asarlar. Puristik va sotsiolingvistik asarlar .....	30
Eron olimlarining lingvistik asarlari .....	38
Eron lingvistlarining tilshunoslikning turli yo'nalishlaridagi ilmiy faoliyati. Tarjimalar.....	45
Eron tilshunosligi fanidan tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati .....	48
Lingvistik terminlar lug'ati .....	51
Mundarija .....	66

## QAYDLAR UCHUN

Texnik muharrir:	N.Hamidova
Musahhih:	A.Nishanbayeva
Komyuter verstkasi:	N.Nuriddinov

Ushbu o‘quv-uslubiy qo‘llanma Toshkent davlat sharqshunoslik institutining O‘quv-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan (5-sonli bayonnoma, 19.04.2012).

Bosishga ruxsat etildi 15.05.2012.

Bichimi 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub> Shartli 4,25 b.t. 50 nusxada bosildi. Buyurtma № Toshkent davlat sharqshunoslik institutining kichik bosmaxonasi. Toshkent, Shahrisabz ko‘chasi, 25.

© Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2012

© X. Alimova, 2012